

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA  
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DALAT UNIVERSITETI**

**MILLIY G`OYA, HUQUQ VA MA`NAVIYAT ASOSLARI KAFEDRASI**

**4-KURS KUNDUZGI BO`LIM BITIRUVCHISI  
SAIDOV SHAVKATNING**

**O`ZBEKISTONNING XALQARO EKOLOGIK HAMKORLIGI  
MAVZUSIDA**

***MALAKAVIY BITIRIUV  
ISHI***

**(2010-2011 o`quv yili)**

**Ilmiy ra?bar:**

**Yuridik fanlari nomzodi,  
dotsent R.Ə.Kilichev**

**Buxoro-2011**

# **O`zbekistonning xalqaro ekologik hamkorligi**

**Reja:**

**Kirish**

## **I. Xalqaro ekologik hamkorlikning huquqiy asoslari**

I.1. Xalqaro ekologik hamkorlik tushunchasi, mazmuni va tarixi

I.2. Xalqaro ekologik hamkorlikni huquqiy tartibga solish asoslari. Xalqaro va mintaqaviy xujjatlar tavsifi

I.3. O`zbekiston Respublikasi Xalqaro ekologik hamkorlikning milliy-huquqiy asoslari

## **II. O`zbekiston xalqaro ekologik hamkorligining asosiy xususiyatlari**

II.1. O`zbekiston xalqaro ekologik hamkorligining asosiy yo`nalishlari

II.2. Xalqaro ekologik hamkorlik istiqbollari

**Xulosa**

## **Kirish**

**Ishning dolzarbligi.** Barqaror rivojlanishning asosiy poydevori bo'lgan iqtisodiy salohiyatda albatta xalqaro ekologiya hamkorlik va uning asoslari muhim o'rin egallaydi. Inson xo'jalik faoliyatining natijasi o'laroq ekologiya tizimida ro'y berayotgan salbiy o'zgarishlar odamlarning ekologik tafakkurini bu boradagi ijtimoiy munosabatlarini ekologiya tizimi barqarorligi bilan bog'liq shart-sharoitlarni yanada takomillashtirish, jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro uyg'unligda to'liq takomilga erishish bo'yicha qabul qilingan milliy ekologiya mutanosibligini qo'llab quvvatlash hamda xalqaro ekologik hamkorlikni huquqiy asoslarini tubdan yaxshilanishini taqazo etmoqda.

Ushbu yo'nalishdagi dasturiy ko'satmalar tabiatni huquqiy jihatdan muhofaza qilish va tabiat resruslardan samarali fo'dalanish yuzasidan shakllantirilgan asosiy g'oya va tushunchalarni qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

Chunki inson va atrof muhit o'rtasidagi munosabat butun insoniyat hayotini yaxshilashning eko tizimini aniq maqsadga yo'naltirilgan muvozanat holiga keltirish ijtimoiy ekologiya munosabatlarini muvofiqlashtirishda xalqaro ekologik hamkorlik huquqiy asoslarini yuksak darajada bo'lishga erishish dolzarbligicha qolmoqda. Ushbu ekologiya, tashkiliy va yuridik muammolarni hal etishda olimlar, amaliyotchilar, biologlar, tuproqshunoslar, melioratorlar, huquqshunoslar va boshqalarning birgalikdagi say-harakatlarini birlashtirish zarur.

### **Bitiruv malakaviy ishining o'rganilish darajasi.**

O'zbekistonda ekologik hamkorlik va uning huquqiy asoslarini o'rganishdan tarmoq fan vakillarining xizmatlari e'tiborga loyiq. Ayniqsa Xolmo'minov J. T<sup>1</sup>. (2000), Kenjayev (2006), Ashurmetov O. A.<sup>2</sup> (2008), Rustamboyev M. R. (2006), Aslonov<sup>3</sup> (2009), To'xtayev A. S.(2005), Usmonov M. U. (2002)<sup>4</sup>, Negmatov A. N.(2005)

---

<sup>1</sup> Xolmo'minov J. Ekologiya va qonun.- Toshkent: Adolat, 2000.

<sup>2</sup> Ashurmetov O. Ekologiya.-Toshkent: Chinor, 2008.

<sup>3</sup> Aslonov M. Atrof tabiat muhitni muhofaza qilishning tabiiy kafoloti. – Toshkent: Adolat. 2009.

<sup>4</sup> Usmonov M. Tabiatni muhofaza qilishning konstitutsiyaviy asoslari. Risola.-Toshkent: TDYUI, 2002.

tomonidan olib borilgan. Bundan tashqari O`zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasi, Fuqarolik jamiyati institutlari hamda ekologiya xabarnoma jurnalini BMT taraqqiyot dasturi ma`lumotlaridan foydalanilgan.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari.**

Mazkur tadqiqot ishining asosiy maqsadi O`zbekistonning xalqaro ekologiya hamkorligining afzalliklarini yoritib berish va uning huquqiy tamoyillarini ishlab chiqirishdan iborat.

Ushbu maqsad yo`lida quyidagi vazifalarni bajarish ko`zda tutilgan.

- tabiatni muhofaza qilish, atrof muhitni yanada yaxshilash insonning moddiy va ma`naviy farovonligining huquqiy asoslarini tubdan yaxshilash.
- Tabiatdan foydalanishning ekologik samaradorligini oshirish
- Tabiiy ob`yektlar (ularning tarkibiy komponentlari)ning foydali ekologiya funksiyalarini doimiy ravishda tiklash va qayta tiklangan tabiiy boyliklarni keng miqiyosda ishlab chiqarishning huquqiy jihatlarini yoritish.
- Tabiat muhofazasi qonunchilig me`yorlari buzilgan paytda yuridik ma`suliyat oshkoraligi va haqqoniyligini ta`minlagan.

## **I. Xalqaro hamkorlikning huquqiy asoslari**

### **I.1 Xalqaro hamkorlik tushunchasi mazmuni tarixi**

O`zbekiston mustaqillikka erishgandan boshlab Rio-de Janeyro konferensiyasida qabul qilingan ekologik siyosatni, ya'ni atrof-muhitni muhofazasi bo`yicha yuqori sifatga erishish va aholi salomatligini yaxshilashga qaratilgan ishlar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Ekologik muammolarni hal etishning asosiy yo`nalishlari Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasi, vazirliklar, vedomostlar hamda davlat tomonidan qabul qilingan ilmiy harakat rejasi, atrof - muhitni muhofaza qilish bo`yigcha gigienik milliy harakat rejasi, biologik hilma-xillikni saqlash bo`yicha milliy strategiya va harakat rejasi va boshqalarda o`z aksini topgan<sup>1</sup>.

Bozor iqtisodiyotiga o`tish sharoitida davlatning eng muhim vazifasi aholi sonini shaharlarda o`sishi, transport orqali yuk tashish, qishloq xo`jalik va sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan bog`liq ravishda atrof- muhitni muhofaza qilish muammolarini hal etish, shuningdek tabiiy resurslarni qayta tiklash va ulardan oqilona foydalanish masalalari turibdi.

O`tish davri shubhasiz tabiiy resurslardan foydalanish darajasi va tabiiy atrof-muhitni ifloslanishiga ta'sir ko`rsatadi.

Bunday sharoitda Tabiatni muhofaza qilish davlat ko`mitasi tomonidan resurslardan tejab-tergab foydalanish va kam chiqimli texnologiyalardan foydalanish kabi ekologik siyosatni olib bormokda.

O`zbekiston Respublikasi atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida Xalqaro hamkorligi tashqi siyosatning asosiy yo`nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu sohada asosiy e'tibor qo`yadagilarga qaratilishi lozim:

- Orol xavzasida yuzaga kelgan ekologik holatni yaxshilash;

---

<sup>1</sup> Kenjaev R. O`zbekiston Respublikasida yerlarni muhofaza qilishning huquqiy masalalari. Avtoreferat.- Toshkent: TDYuI, 2006.-B.4.

- Flora va faunaning ginetik fondini saqlash;
- Suv, tuproq va atmosferaning ifloslanishini oldini olish;
- Havfli chiqindilarni atrof-muhitga salbiy ta'sirini minimumga va ekologik havsizlikni saqlash (normativ), zaharli kimyoviy moddalar ishlatilishi, shuningdek ozon qatlamini emiruvchi moddalarni ishlab chiqarishdan olib talash;
- Tabiiy resurslardan samarali foydalanish;

Mustaqillik davrida bir necha marta Orol dengizining muammolariga bag`ishlangan seminarlar, konferenstiyalar va uchrashuvlar o`tkazildi.

1993 yil 26 martda Qizil O`rda shahrida Markaziy Osiyo davlatlari va Rossiya rahbarligida anjuman bo`lib o`tdi.

1993yilning 2 yanvarida Nukusda Markaziy Osiyo davlatlari va Rossiya davlati ishtirokida, 1995 yil 20 sentyabrda Nukusda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari uchrashuvi, 1997 yil 28 fevralda Almatada Markaziy Osiyo dvalatlari rahbarlari uchrashuvi bo`lib o`tdi va«Almati bayonnomasi» qabul qilindi.

Uzbekiston Respublikasi quyidagilarga qo`shildi:

- iqlimning o`zgarishi Konveniiyasi (1993 yil 14 mart)
- biologik hilma-xillikni saqlash Konvenstiyasi (1996 yil 7 martda)
- havfli chiqindilarni tashish, va nazorat qilish bo`yicha «Bazel konvenstiyasi» (1996 yil 7 may)
- cho`llanish jarayoniga qarshi qurashish Konvenstiyasi (1995 yil 13 oktyabr)
- suvda suzuvchi qushlarni (Afrika, Osiyo bo`yicha) muhofaza qilish, bo`yicha xalqaro Bonn Konvensiyasini qo`llash (Gaaga 1995 yil iyun.)

Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo`mitasi Konvensiya bo`yicha quyidagi ishlarni amalga oshirish ko`zda tutilgan;

- Ozon qatlamini yemiruvchi moddalarni qayta ko`rib chiqish, Vena va Monreal protokollari asosida milliy dastur yaratish va faoliyat ko`rsatish.
- Biologik hilma-xillikni saqlash bo`yicha ilmiy loyiha va rejalar ishlab chiqish.

Hozirgi vaqtda O`zbekiston Respublikasi hukumati BMTning Ovropa iqtisodiy

komissiyasiga qo`shimcha masalalarni ko`tarib chiqmoqda.<sup>1</sup>

Turkiya bilan atrof-muhitni muhofaza qilish bo`yicha (1996 yid 8 may), Xitoy xalq Respublikasi bilan (1997 yil 11 dekabr) buyicha xalqaro bitim tuzilgan. Shuningdek Niderlandiya, Vengriya, Slovakiya, Isroil, Lyuksemburg, Litva kabi mamlakatlar bilan bitim tuzilgan. Bundan tashqari, tashqi ishlar vazirligi Germaniya va Ovropa ittifoqi bilan atrof-muhitni muhofaza qilish bo`yicha o`zaro hamkorlik qilish kelishib olindi.

O`zbekiston Respublikasida Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasi Davlatlararo ekologik kengashida faol qatnashgan. Uning uchinchi sessiyasi 1993 yil mayida Toshkentda o`tkazildi.

Hamdo`stlik mamlakatlari doirasida esa davlatimiz atrof-muhitni muhofaza qilish bo`yicha Qozog`iston, Qirg`iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Gruziyalardan ikki tomonlama bitimlar tuzildi.

Shuningdek Ukraina, Belorussiya davlatlari bilan va uch tomonlama Qirg`iziston, Qozog`iston va O`zbekiston mamlakatlari o`rtasida bitimlar tuzildi.

Shunga qaramay Respublikada qo`yidagi ekologik muammolar hal etilmay qolmoqda:

1. Orol bo`yidagi ekologik tang ahvol.
2. Er, suv va biologik resurslarning buzilishi.
3. Suv, er, biologik resurslar va atmosfera havosiga transportning ta`siri.
4. Tabiiy muhit holatini va ifloslanish manbalari hamda tabiiy resurslardan foydalanishni nazorat qilish uchun etarli texnika va meteorologik imkoniyatlarning etishmasligi.
5. Atrof-muhit holatini analitik nazorat qilish uchun mahsus asbob- uskunalarni ishlab chiqarish korxonalarining yo`qligi.
6. Tog`-konlarning chiqindilari, avvalambor uran konlari ayniqsa, chegara xududlaridagi holati.
7. Sanoat va maishiy turmush chiqindilarini qayta ishlovchi va o`zlashtiruvchi tizimlarning yo`qligi.

---

<sup>1</sup> Xolmo`minov J. Ekologiya va qonun. – Toshkent: Adolat, 2000.-B. 45.

8. Tabiiy atrof-muhit va uning ifloslanish manbalari va tabiiy resurslardan foydalanish holati bo'yicha etarli ekologik bank tizimi ma'lumotlarining bo'lmasligi.

Tabiiy atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanysh masalalari, makroiqtisodiyotni isloh qilish jarayonida ajralmas bir qismi sifatida qaralishi lozim.

Davr natijalariga ko'ra, mamlakatimiz nafaqat global inqiroz taxdidlariga qarshi tura oldi, balki iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning barqaror sur'ati va xalq farovonligini ta'minladi. O'zbekiston bozor iqtisodiyoti asosida xuquqiy demokratik davlatni shakllantirish jarayonida tabiatga madaniyatli munosabatda bo'lishga oid normativ xujjatlarni xam qabul qildi. Bu ko'pgina ekologik muammolarni bartaraf etish yoki ta'sirini yumshatish imkonini berdi<sup>1</sup>.

Markaziy Osiyodagi suv muammolari haqida gapiradigan bo'lsak, Orol dengizining kurishi tufayli yuzaga kelgan ekologik fojia Orol xavzasidagi barqaror hayotni kariyb izdan chiqardi. Nafaqat ichimlik suvi, balki ijtimoiy hayotning deyarli barcha jabhalari uchun ham obi hayot taqchilligi yuzaga keldi.

Ushbu ekologik fojia Orolbo'yi havzasida yashovchi ko'p millionli aholining turmush tarziga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Yana bir muhim jihati shun-daki, bu ekologik tanazzul bir-biriga uzviy bog'lik, bo'lgan va xalqaro ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy - iqtisodiy muammolarning yaxlit va murakkab majmuini vujudga keltirdi.

Tobora oqimi kamayib borayotgan daryolar suvidan borgan sari ko'proq foydalanilayotgani va daryolar imkoniyatlari tugab borayotgani hamda, o'tgan asrning so'nggi o'n yilliklarida yog'ingarchilikning kam bo'lishi mintaqada tuz va suv mutanosibligi buzilishiga olib keldi.

Natijada bir avlod ko'z o'ngida bir paytlar yopiq suv havzalari ichida kattaligi jihatidan dunyoda to'rtinchi o'rinda turgan Orol dengizi qariyb o'lik dengizga aylanib qoldi. Uning kurib qolgan tubida 5 million gektardan ziyod ekologik fojia o'chog'idan

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muofaza ilish Davlat qo'mitasining O'zbekiston Respublikasida atrof muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan foydalanishning holati to'g'risidagi Milliy ma'ruzasi. – Toshkent: Xan DA. 2006.

iborat yangi Orolqum cho`li paydo bo`ldi va u o`ziga tutash hududlarga tuz – qumli bo`ronlar tarqatuvchi xavfli makonga aylandi. Bu erdan havoga ko`tarilayotgan changli bo`ronlarning ta'sir doirasi 500 kilometrdan ham olisga etib borayotgani Orol fojiasining naqadar keng qam-rovli ekanidan dalolat beradi.

Har yili Orol-qumdan atmosferaga 100 million tonnagacha chang ko`tarilayotir. O`tgan asrning 80-yillaridan boshlab bu erdagi chang bo`ronlari davomiyligi 90 kundan ham ko`proq bo`layotgani mutaxassislar tomonidan e'tirof etilmokda.

Eng asosiysi, Orolga suv quyilishining kamayishi dengiz va uning ekotizimidagi gidrologik va gidrokimyoviy me'yorlarning tiklab bo`lmas darajadagi o`zgarishiga olib keldi. Dengizning baliqchilik sohasidagi ahamiyati umuman yo`qoldi. Jumladan, o`tgan yili Qoraqalpog`iston hududidagi suv havzalarida baliq ovlash 1991 yildagi ko`rsatkichning bor yo`g`i 23 foizini tashkil etdi. Buning oqibatida baliqni qayta ishlash, kemachilik, kemalarni ta'mirlash kabi mintaqa uchun bir paytlar juda katta foyda keltirgan sanoat turlari yo`q bo`lib ketdi. Vaqtida port va baliqchilik sanoatining yirik markazlari hisobgan Mo`ynoq va Qozokdaryo aholi punktlari endilikda dengiz qirg`oqlaridan yuzlab kilometr chekidi. Buning oqibatida o`n minglab kishilar an'ana kasblaridan maxrum bo`ldilar. Janubiy orol bo`yidagi ko`plab kichik ko`llar qurib qoldi. Sayozlikka aylandi. Bu esa, o`z navbatida, 90 foiz to`qayzorlarning yo`q bo`lib ketishiga, 800 ming gektardagi qamishzorlarning qurishiga va bu erlardan qo`nim topgan parranda-yu darrandalarning qirilib ketishiga olib keldi.<sup>1</sup>

Ayni paytda, transchegaraviy daryolarning o`rta va yuqori oqimlarida yuzlab sun'iy suv havzalari paydo bo`ldi. Natijada Orol fojiasining oqibat-lari hatto Pomir va Tyan-Shanning eng baland cho`qqilarida ham kuzatilayotgani bugun hech kimga sir emas.

Orolning qurishi er resurslarining kamayishi aa tuproq unumdorligining pasayishi bilan bir paytda kuzatilmokda. Yaylovlar va pichanzorlarning tabiiy holati

---

<sup>1</sup> Fayziev Sh. Ekologiya nazorati tizimi: huquqiy ta'minlash masalalari. Mustaqqil O`zbekiston falsafa va huquq fanlarining dolzarb muammolari mavzusidagi uchinchi ilmiy-amaliy konferenstiya materiallari to`plami.- Toshkent: I. Mo`minov nomidagi falsafa va huquq instituti, 1996.-B.12.

tobora yomonlashib, sho`r bosgan yangi-yangi maydonlar paydo bo`layotir. Umuman olganda, Orolbo`yidagi cho`llanish darajasining keskin oshishi natijasida hududning biologik mahsuldorligi 10 barobar kamaydi. Bazi joylarda yaylovlar va pichanzorlar o`z ahamiyatini butunlay yo`qotdi.

Mintaqada cho`llanish jarayonining tezlashishi o`simlik va hayvonot dunyosi xilma-xilligiga salbiy ta`sir ko`rsatmokda. Orolbo`yidagi sanitar va ekologik vaziyat tobora murakkablashib borayotir. Yuqumli va boshqa kasalliklarga chalinish ko`paymoqda. Ana shunday sharoitda suvdan oqilona foydalanish Markaziy Osiyo davlatlari uchun, ayniqsa, transchegaraviy daryolarning quyi oqimida joylashgan mamlakatlar uchun eng asosiy vazifalar-dan biri bo`lib qoldi<sup>1</sup>.

O`zbekiston Prezidenti Islom Karimov "O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida ta`kidlaganidek "... daryolar oqimi asosan Qirg`iziston va Tojikiston tog`laridan boshlanadi. Suv zaxiralarining ko`pchilik qismi Markaziy Osiyodagi barcha respublikalarning erlarini sug`orish uchun foydalaniladi. Shu munosabat bilan mintakadagi barcha davlatlarning manfaatlari yo`lida hamda ekologiya talablarini, daryolar deltalarida va Orol dengizida maqbul hayotiy shart-sharoitlarni yaratish maqsadida bu erlarga suvning o`tishini ta`minlash zarur. Shu bilan birga Orol dengizi havzasining cheklangan suv zaxiralarini birgalashib, kelishgan holda boshqarish muammosini amaliy hal qilish talab etiladi".

---

<sup>1</sup>To`xtayev A. S, aydarova X. N, Mardiyeva K, Ismoilova D. Ijtimoiy ekologiya. – Toshkent: 2005.-B. 11.

## **I.2. Xalqaro ekologik hamkorlikni huquqiy tartibga solish asoslari. Xalqaro va mintaqaviy xujjatlar tavsifi**

Biz yashab turgan hozirgi zamonda insonlarning ehtiyojlari qondirilishi uchun ular tomonidan ijtimoiy munosabatlarning qaysidir turiga ta'sir o'tkaziladi. Ta'sirlar o'z navbatida ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy munosabatlarning muayyan turiga ijobiy ta'sir etishning natijasi o'laroq shu sohadagi kamchiliklar bartaraf etilib, xuquqbuzarliklarning oldini olish borasida samarali chora tadbirlar ishlab chiqilishi mumkin. Taxdid deganda ijtimoiy munosabatlarning muayyan turiga salbiy ta'sir etishni tushunish maqsadga muvofiq bo'ladi<sup>1</sup>.

Kishilik jamiyatida insonlarning normal hayot kechirishlariga ta'sir etadigan taxdidlardan biri bu-ekologik taxdidlardir. Ekologik tahdid insonlarning tabiat bilan bo'ladigan munosabatlarda ular tomonidan tabiiy qoida va an'analarga yoki huquq qoidalariga noto'g'ri rioya qilish yoxud ularga rioya qilmaslik natijasida yuzaga keladi.

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muxofaza qilish Davlat qo'mitasining 2006 yilda tayyorlagan "O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit muxofazasi va tabiiy resurslardan foydalanishning holati to'grisida"gi Milliy ma'ruzasida ekologik taxdidlar global, mintaqaviy, milliy va mahalliy toifalarda ko'rib chiqilgan. Unga ko'ra, iqlim o'zgarishi, ozon omili, Orol dengizi muammosi bugunning global muammolari qatoridan o'rin olgan<sup>2</sup>.

Ekologik taxdidlarning mintaqaviy muammolar qatoriga Orolbo'yi muammosi, suv resurslaridan foydalanishning mintaqaviy muammosi, atrof-tabiiy muhitning transchegaraviy muammosi, cho'llanish, yuqumli va o'ta xavfli kasalliklarning tarqalishi, tabiiy va texnogen tusdagi kataklizmlar kiritilgan.

Suv resurslarining etishmasligi va ifloslanganligi, aholining ichimlik suvi bilan

---

<sup>1</sup> Rustamboyev M. . O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism. – Toshkent: Ilm-ziyo. 2006.-B. 60.

<sup>2</sup> Kenjaev R. O'zbekiston Respublikasida yerlarni muhofaza qilishning huquqiy masalalari. Avtoreferat.- Toshkent: TDYUI, 2006.- B. 5.

ta'minlanishi, ko'chiklar va sel toshqinlari, atmosfera havosining ifloslanganligi, bio xilma-xillikni saqlab qolish, aholi salomatligi holatining yomonlashishi, halokatlar va avariya, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish, sanoat va maishiy chiqindilar ekologik xavfsizlikning milliy taxdidlari qatoriga kiritilgan.

Muayyan hududlarning radiatsion ifloslanishi, er osti suvlarining ifloslanishi ekologik xavfsizlikka mahalliy doiradagi taxdid sifatida baholanadi.

Global ekologik taxdidlar bir mamlakat doirasida hal etib bo'lmaydigan muammo hisoblanadi. Bu kabi muammolar er yuzidagi barcha davlatlarning bu borada qayturishini talab etadi. Global ekologik muammolar butun dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etilishi va ularni echish bo'yicha xalkaro kelishuvlarga erishilishi o'ta dolzarbdir<sup>1</sup>.

Mamlakatimiz ham mustaqillik yillarida global ekologik munosabatlarni bartaraf etish, yuzaga kelishi mumkin bulgan yangi muammolarning oldini olish maqsadida bir qator xalkaro konvensiya va bitimlarga qo'shildi va ularni talablarini og'ishmay bajarib kelmokda.

Global ekologik taxdidlardan bo'lgan iklim o'zgarishlari, ozon omili tabiiy muhitning bir qator faktorlar asosida o'zgarishi natijasida yuzaga kelmoqda. Iqlim o'zgarishining, ozon qatlami emirilishiniig sababalarini o'rganish va ularni oldini olishning samarali usullarini ishlab chiqish, butun jahon hamjamiyati oldida turgan o'ta dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Ma'lumki ozon qatlami insoniyatni va butun tabiatni kuyoshning zararli nurlaridan, ulkan radiastiyaviy bo'ronlardan asrab turuvchi Erning yagona qalqonidir. Ozon qatlamining siyraklashishi, unda tuynuklarning hosil bo'lishi tabiatning buzilishiga, iqlimning o'zgarishiga va ko'plab tabiiy ofatlarga hamda kasalliklarga sabab bo'lmoqda.

Ozon omilining global ekologik tahdidlar qatoriga kiritilishining sababi ham

---

<sup>1</sup> Aslonov M, Abduraimov F, Bekiev O. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning huquqiy kafolati. – Toshkent: 2009. -B. 55.

mana shundadir. Ozon qatlamini asrash bo`yicha xalqaro konvenstiya, protokol va bitimlar imzolangan bo`lib, O`zbekiston Respublikasi ozon qatlamini asrash bo`yicha 1985 yilgi Vena konvenstiyasiga va Ozon qatlamini buzuvchi moddalar bo`yicha, 1987 yilgi Monreal protokoliga qo`shilgan va O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Ozon qatlamini himoya qilish to`g`risidagi, 1985 yilgi Vena konvenstiyasiga va Ozon qatlamini buzuvchi moddalar bo`yicha, 1987 yilgi Monreal protokoliga binoan O`zbekiston Respublikasining majburiyatlari bajarilishini ta`minlash hamda ozonni buzuvchi moddalarni chiqarib tashlashni tartibga solish chora-tadbirlarini amalga oshirish maqsadida 2000 yil 24 yanvarda "Ozon qatlamini himoya qilish sohasidagi shartnomalar bo`yicha O`zbekiston Respublikasining xalqaro maj- buriyatlarini bajarish chora-tadbirlari to`g`risida" qaror qabul qildi. Mazkur qarorga ko`ra O`zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo`mitasi tomonidan O`zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi, Davlat bojxona qo`mitasi bilan birgalikda ishlab chiqilgan Ozonni buzuvchi moddalardan foydalanishni to`xtatish milliy dasturi ma`qullandi. O`zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi, Davlat bojxona qo`mitasining ozonni buzuvchi moddalar va tarkibida ular bo`lgan mahsulotlar olib kirilishi v olib chiqilishi ustidan qattiq nazorat o`rnatishlari belgilandi. Shuningdek mazkur qarorda O`zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo`mitasiga: - ozonni buzuvchi moddalarni va tarkibida ular bo`lgan mahsulotlarni olib kirish va olib chiqish tartibi tug`risidagi Nizomni bir oy muddatda ishlab chiqish va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish<sup>1</sup>;

- O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birgalikda korxonalar va tashkilotlarning ozonni buzuvchi moddalardan foydalanishni to`xtatishga qaratilgan harakatlarini rag`batlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

- O`zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi bilan kelishgan holda xo`jalik yurituvchi sub`ektlarning ozonni buzuvchi moddalarga bo`lgan ehtiyoji

---

<sup>1</sup> Abdusalomov M, Azimov X, Ahmadjonov B va boshqalar. O`zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi, Toshkent: Adolat, 2007.-B. 31.

va ulardan foydalanishi to`g`risidagi idoraviy statistika hisobotini 2000 yil 1 yanvardan boshlab joriy etish vazifalari yuklatildi.

Shu bilan bir qatorda O`zbekiston Respublikasi Fan va texnika davlat qo`mitasi, Davlat tabiatni muhofaza qilish qo`mitasi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar ozonni buzuvchi moddalarning o`rnini bosuvchi moddalardan foydalanishga o`tish sohasida, ayniqsa mahalliy resurslardan foydalangan holda, istiqbolli ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari ishlab chiqilishi va joriy etilishini har tomonlama qo`llab- quvvatlashlari, "Uzteleradio" kompaniyasi, O`zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo`mitasi, Davlat tabiatni muhofaza qilish qo`mitasi ommaviy axborot vositalarida Milliy dastur maqsad va vazifalari tushuntirilishini ta`minlashlari, ozonni buzuvchi moddalarni siqib chiqarish vaularni ozon uchun xavfsiz moddalar bilan almashtirish ishlarining borishini yoritishlari lozimligi ham mazkur qarorda o`z qonuniy ifodasini topdi<sup>1</sup>.

Global ekologik taxdidlardan bo`lgan Orol dengizi muammosi o`tgan asrning 90-yillarida yuzaga kelgan yangi va o`ta dolzarb muammolardan biridir. Orolni asrash, Orol dengizi mintaqasidagi buzilgan ekotizimni qayta tiklash bo`yicha O`zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida talay chora-tadbirlarni amalga oshirdi. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2004 yil 3 aprelda Orolbo`yi ekologiyasini yaxshilash, aholisi sog`lig`ini mustahkamlash va atrof tabiiy muhitini muhofaza qilish maqsadida "Orolbo`yi genofondini muhofaza qilish xayriya jamg`armasini tashkil etish to`g`risida qaror qabul qildi va qarorda quyidagilar Jamg`armaning asosiy vazifalari etib belgilandi<sup>2</sup>:

-mintaqani barqaror rivojlantirishning asosiy sharti sifatida Orolbo`yi aholisi sog`lig`ini saqlash va atrof tabiiy muhitini muhofaza qilish masala- lari bo`yicha tizimli dasturlar va loyihalar ishlab chiqishni tashkil etish va ularni amalga oshirish;

- sog`liqni saqlash mintaqaviy tizimini takomillashtirishda, aholining, ayniqsa

---

<sup>1</sup> To`xtayev A. S, aydarova X. N, Mardiyeva K, Ismoilova D. Ijtimoiy ekologiya. – Toshkent: 2005.-B. 44.

<sup>2</sup> Hakimov R. O`zbekiston ekologik harakati saylov jarayonlarining muhim sub`yekti sifatida.// Fuqarolik jamiyati. 2011. 14-yanvar. –B. 22.

bolalar va ayollarning sog`ligi darajasini oshirishda, sanitariya- epidemiologiya vaziyatini yaxshilashda, kundalik hayotga oilaviy salomatlik ma- daniyatini joriy etishda yordam ko`rsatish;

atrof tabiiy muhit, shu jumladan Orolbo`yi nabotot va hayvonot dunyosini sog`lomlashtirish hamda muhofaza qilish muammolarini hal etishga jamoatchi- likni jalb etish;

mintaqaning biologik rangbarangligini saqlashda va tiklashda faol ish- tirok etish;

-yuqorida ko`rsatib o`tilgan muammolar va vazifalarni hal qilishga xalqaro tashkilotlarni keng jalb etish.

Yuqorida qayd etganimizdek, global ekologik muammolarni birgina mamlakatning kuchi va sa'y harakatlari bilan hal etib bo`lmaydi. O`zbekiston Respublikasi ham mustaqilikka erishgandan keyin barqaror rivojlanishga erishish uchun ishlab chiqarish sektorini tezlikda qayta isloh qilishdan tashqari atrof-muhitni muhofaza qilish bo`yicha milliy mexanizmlar va in- stitutlaridagi kamchiliklarni yo`qotish qat'iy zaruriyati ham mavjudligi tan oldi va ekologik qonunchiligimizni xalqaro andoza va standartlarga moslashtirish, shuningdek, O`zbekiston Respublikasi Konstitustiyasida mustahkamlangan xalqaro shartnoma va bitimlarning ustunligi tamoyiliga amal qilish maqsadida bir qator xalqaro bitim va konvensiyalarga qo`shilib, ularni ratifikastiya qildi. Natijada mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish bilan shug`ullanuvchi institutlar, qonunchilik va siyosatni isloh qilish, takomillashtirishga qaratilgan keng miqyosdagi dasturni amalga oshirish boshlandi<sup>1</sup>.

O`zbekiston Respublikasi tashqi siyosati strategiyasida xalqaro tabiatni muhofaza qilish hamkorligi asosiy yo`nalishlari belgilandi. O`zbekiston Birlashgan Millatlar tashkilotiga a'zo bo`lgach uning bir qator dasturlari hamda maxsus tashkilotlari - atrof-muhitni muhofaza etish dasturi (YuNEP), taraqqiyot dasturi (BMTTD), ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo`yicha tash- kiloti (YuNESKO), Xalqaro meteorologiya tashkiloti (XMT), Butunjahon sog`liqni saqlash tashkiloti

---

<sup>1</sup>Karimov I. A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.- Toshkent: O`zbekiston, 1995

(BSST), sanoat rivojlanishi bo'yicha (YuNIDO) hamda uning ikki mintaqaviy komissiyasi: Evropa iqtisodiy komissiyasi (BMT EIK), Tinch okeani va Osiyo mintaqasi uchun iqqisodiy va ijtimoiy komissiya (ESKATO) bilan hamkorlik qila boshladi.

1999 yilda O'zbekiston Respublikasi va Evropa Hamjamiyati hamda uning a'zo davlatlari o'rtasida hamkorlik va sherikchilik to'g'risida Bitim imzolandi. Ushbu Bitimning 54-bandi atrof-muhitni va sogliqni saqlashga bagishlangan hamda hamkorlikning 22 ta maksad va sohalarini o'z ichiga oladi, ular quyidagilardan iborat<sup>1</sup>:

- suvning sifati;
- transchegaraviy suvlar va havoning ifloslanishi;
- transchegaraviy miqyosda atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishni baholash to'g'risida BMT EIK konvenstiyasini qo'llash;
- chiqindilar boshqaruvi va Bazel konvenstiyasini bajarish;
- biologik xilma-xillikni saqlash va iqlimning global o'zgarishi bilan kurashish;
- sanoat korxonalarini xavfsizligi, ximiyaviy xavfsizlik va ekologik toza texnologiyalardan foydalanish;
- ofatlar va falokatlar hamda boshqa favqulodda vaziyatlar to'g'risida oldin- dan ogohlantirish;
- mamlakat ekologik qonunchiligini Evropa ittifoqi qonunchiligiga mos- lashtirish.

1991 yilda "Evropa uchun atrof-muhit" jarayoni boshlandi. O'zbekiston ushbu jarayonda 1995 yilda Sofiyada uchinchi Vazirlar Konferenstiyasi o'tkazilgan davrdanboshlab ishtirok etadi va Vazirlar darajasidagi "Evropa uchun atrof- muhit" beshinchi konferenstiyasida (Kiev, 2003) o'z ishtirokini davom ettirdi.

1991yilda Rio-de-Janeyrodagi Er sammiti paytida xalqaro jamoatchilik "Kun tartibida - XXI asr"da barqaror rivojlanish bo'yicha keng miqyosda global harakatlar Rejasi qabul qilindi.

1992Ma'lumki, 2000 yil sentyabrda BMTning ming yillik Sammitida butun

---

<sup>1</sup> Ergashev A, Ergashev T. Agroekologiya: Darslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. -B.17.

dunyo rahbarlari BMT ming yillik Deklarastiyasini qabul qildilar. Bu deklarastiya BMT a'zolari —davlatlarning tinchliksevar, yashnayotgan va odil dunyoni umumiy ko`rishlarini aks ettiradi.

Ushbu hujjat inson huquqini, davlat boshqaruvi va demokratiya bo`yicha majburiyatlar keng doirasini qamrab oladi. Ming yillik rivojlanish maqsadlari (MRM) - kambag`allikni kamaytirish va odamlar hayotini yaxshilash bo`yicha ulkan dasturdir.

Sakkizta asosiy maqsadlar va ular bilan bog`liq masalalar hamda global, mintaqaviy va milliy miqyosda MRM bajarilishini umumiy baholash va mavqeini tushunishni ta'minlovchi indikatorlar ko`rsatildi. Mana shu maqsadlarga 2015 yilda erishilishi kerak edi.

O`zbekiston uchun MRM, jumladan, ekologik barqarorlikni ta'minlash ko`rinishida ham ifoda etilgan. Barqaror iqtisodiy o`sinh va insonlar yanada rivojlanishlarini ta'minlash maqsadida sovet davridan meros bo`lib kelgan ekologik muammolarni tezlikda hal etish zarur.

Mana shulardan kelib chiqib 2015 yilga hal etilishi kerak bo`lgan milliy vazifalar quyidagilardan iborat:

- a) hukumat siyosati va dasturi hozirgi hamda kelajak avlod uchun atrof - muxitni himoyalashga qaratilgan bo`lishini va tabiiy resurslarni yo`qotish jarayonini orqaga qaytarishini ta'minlash;
- b) toza suvdan va sanitariyadan foydalanadigan qishloq va shahar aholisi sonini oshirish.

O`zbekiston BMT, EX,XTlarning xalkaro institutlariga qo`shildi, atrof- muxitni muhofaza qilish bo`yicha 9 ta konvenstiyalar va kerakli protokollar ratifikastiya qildi, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida hamkorlik to`g`risida 12 ta xalqaro bitimlarni imzoladi<sup>1</sup>.

Atrof-muhitni muhofaza qilish va rivojlanish sohasidagi Xalqaro huquqiy

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. Inson, uning huquqi va erkinliklari hamda manfaatlari-eng oliy qadriyat. O`zbekiston Respublikasi Konstitustiyasi 13 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimda so`zlangan nutq.

hujjatlarga qo`shilish va ratifikastiya qilish - xalqaro hamjamiyat oldida O`zbekistan tomonidan majburiyatlarni bajarilishining muhim ban- didir.

O`zbekiston BMT homiyligi ostidagi global tabiatni muhofaza qilish konvenstiyalari tarafdori bo`lib, ular bo`yicha o`z majburiyatlarini bajarib kelmoqda xususan:

1. ozon qatlamini muhofaza qilish to`g`risidagi Vena konvenstiyasi (18.05.1993);
2. ozon qatlamini emiruvchi moddalar (OKrM) bo`yicha Monreal protokoliga London tuzatishi(01.05.1998);
3. ozon qatlamini emiruvchi moddalar bo`yicha Monreal protokoliga Kopengagen tuzatishi (01.05.1998)
4. tabiiy muhitga ta`sir ko`rsatuvchi vositalarni harbiy yoki boshqa yovuz maqsadlarda foydalanishni taqiqlash to`g`risida konvenstiya (26.05.1993)
5. iqlimni o`zgarishi to`g`risida Doiraviy (Ramochniy) konvenstiya (20.06.1993yil) (Kioto protokoli 1999 yil);
6. jiddiy qurg`oqchilikni va yoki sahroga aylanish jarayonini boshidan kechi-rayotgan mamlakatlar, ayniqsa, Afrikada sahroga aylanishiga qarshi kurash bo`yicha konvenstiya (31.08.1995 yil);
7. xavfli chiqindilarni transchegaraviy olib o`tish va ularni yo`qotishni na- zorat qilish to`g`risida Bazel konvenstiyasi (22.12.1995);
8. biologik xilma-xillik to`g`risida konvenstiya (06.05.1995);
9. butun jahon madaniy va tabiiy meroslarini muhofaza qilish to`g`risida konvenstiya (22.12.1995 yil);
- 10.yo`qolib ketish xavfi ostida bo`lgan yovvoyi flora va faunaning turlari bilan xalqaro savdo to`g`risida konvenstiya (01.07.1997);
- 11.ko`chib yuruvchi yovvoyi hayvon turlarini saqdash bo`yicha konvenstiya (01.05.1998);
- 12.xalqaro ahamiyatga ega bo`lgan asosan suvda suzuvchi hayvonlar yashash joylari hisoblangan suv-botqoq joylar to`g`risida Ramsar konvenstiyasi (30.08.2001).

O`zbekistan mustaqillik yillarida ko`plab xorijiy mamlakatlar bilan atrof tabiiy

muhitni muhofaza qilish bo`yicha ikki tomonlama hamkorlikni amalga oshirmoqda<sup>1</sup>. Xususan Xitoy (1997 yildan), Gruziya (1995 yildan), Hindiston (1996 yildan), Isroil (1997 yildan), Yaponiya (1994 yildan), Qozog`iston (1997 yildan), Qirg`iziston (1996 yildan), Malayziya (1996 yil- dan), Janubiy Koreya Respublikasi (1995 yildan), Slovakiya (1998 yildan), Shveystariya (1998 yildan), Tojikiston (1994 yildan), Tailand (1998 yildan), Turkiya (1996 yildan), Turkmaniston (1996 yildan), Ukraina (1998 yildan), Birlashgan Arab Amirliklari (1998 yildan) va AQSh(1994 yildan) bilan ikki tomonlama hamkorliklar olib borilmokda.

O`zbekiston mintaqaviy integrastiya masalalari hamkorlikni alohida MDH a`zolari bilan ikki tomonlama kelishuvlar asosida (Rossiya Federastiyasi, Ukraina, Gruziya) hamda MDH Ijrochi qo`mitasi yordamchi organi hisoblangan davlatlararo ekologik kengash bilan amalga oshiradi. 2000 yilda tayyorlangan va davlatlar rahbarlari tomonidan imzolangan 2025 yilgacha davrda MDX, rivojlanishi bo`yicha harakatlar Dasturida atrof-muhitni muhofaza kilish bo`yicha qator tadbirlar ko`zda tutilgan (atrof-muhit monitoringa, ekologik xavfsizlik, sanoat chiqindilarini klassifikastiyalash, hamda ularni marki-rovka qilish yagona tizimi va boshqalar).

Mintaqaviy hamkorlik doirasida O`zbekiston 1992 yildan beri ESKATOning a`zosi sifatida faoliyat va hamkorlik olib bormokda. O`zbekiston ESKATO bilan asosan kadrlar tayyorlash masalalari, shu jumladan Yaponiya va Koreya xalqaro hamkorlik agentligi yo`nalishi hamda Hindiston mintaqaviy o`quv markazlari (Geografik axborottizimi (GAT)), Xitoy (chiqindilar boshqaruvi), Malayziya va Tailand (ekologik menejment) yo`nalishlari bo`yicha hamkorlik qiladi.

O`zbekiston quyidagi o`nta davlat: Ozarbayjon, Afg`oniston, Eron Islom respublikasi, Qozog`iston, Qirg`iston, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston va Turkiyadan iborat tarkibdagi ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish bo`yicha mintaqaviy hukumatlararo tashkilot iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT) a`zosi hisoblanadi. IHTda

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. Bizning bosh maqsadimiz- jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizastiya va isloh etishdir.-Toshkent: O`zbekiston, 2005.

atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlik masalalari bilan energetika, tabiiy mineral resurslar va atrof- muhit bo`yicha Direktorat shug`ullanadi. (IHT) ESKATO bilan yaqin hamkorlik qiladi.

Ekologiya sohasidagi xalqaro hamkorlik global, mintaqaviy muammolar- ning hal qilinishida xal qiluvchi rol o`ynaydi, biroq mahalliy doiradagi muammolarni xal qilish ko`p jihatdan mamlakatimizning o`ziga bog`liq bo`lib qolaveradi. Mavjud ekologik tahdidlarni hisobga olgan holda mamlakatimiz hukumati tomonidan ularning oldini olish, yuzaga kelgan muammolarni hal qilish maqsadida bir qator qarorlar qabul qildi<sup>1</sup>.

Jumladan, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi toshqin va sel oqimlari etkazishi mumkin bo`lgan zararning, ko`chki hodisalarining oldini olish, shuningdek ularning oqibatlarini tugatish maqsadida 2001 yil 16 martda "Toshkin va sel oqimlari, ko`chki hodisalarining oldini olish va ularning okibatlarini tugatish chora- tadbirlari to`g`risida", mamlakatimizda o`tkazilayotgan muhofaza ishlari samaradorligini oshirish, toshqin va sel oqimlarini o`tkazib yuborishdan ku- shlishi mumkin bo`lgan zararlarni bartaraf etish, ko`chki hodisalarining oldini olish, shuningdek ularning okibatlarini tugatish maqsadida 2004 yil 10 martda "Toshqin suvlarini, sel oqimlarini xavf-xatarsiz o`tkazib yuborish na ko`chki hodisalarining oldini olish hamda ularning oqibatlarini tugatish chora-tadbirlari to`g`risida" qarorlar qabul qildi. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O`zbekiston Respublikasi xududida atrof tabiiy muhit ifloslantirilganligi va chiqindilar joy- lashtirilganligi uchun kompensasiya to`lovlarini qo`llash tartibini belgilash maqsadida 2003 yil 1 maydagi qarori bilan "O`zbekiston Respublikasi hududida atrof tabiiy muhit ifloslantirilganligi va chiqindilar joylash- girilganligi uchun kompensasiya to`lovlarini qo`llash tartibi to`g`risida"gi Nizomini tasdiqladi. Mazkur Nizom va uning asosida qabul qilingan boshqa bir qator qarorlar mamlakatimizda chiqindilarni joylashtirishning va ularni joylashtirganlik uchun kompensasiya to`lovlarining huquqiy tartibini bel- giladi.

---

<sup>1</sup> <http://www.Glossary.Ru>.

Nizomning 7-bandida ko`rsatilgan modda va chiqindilar kompensastiya to`lovi ob'ektlari hisoblanmaydi va ular quyidagilardan iborat:

- a) maxsus saqlanayotgan va har xil turdagi maxsus jihozlangan to`plash joy- larida joylashtiriladigan xom ashyo resurslari razryadiga tegishli bo`lgan ba- lansdan tashqari rudalar;
- b) vaqgincha (olti oygacha) maxsus ajratilgan maydonlarda joylashtiriladigan va so`ngra ikkilamchi xom ashyo sifatida foydalaniladigan ishlab chiqarish chikindilari;
- v) tabiatni muhofaza qilish organlari bilan kelishuv bo`yicha texnika ekin- lari va dov- daraxtlarni sug`orish uchun foydalaniladigan tozalangan oqova suvlar;
- g) oldindan konlarning tashqarisiga joylashtirilmaydigan konlar ichida joylashtiriladigan yuzasi ochilgan jinslar uyumlari;
- d) ifloslantiruvchi moddalarni atrof tabiiy muhitga chiqarib tashlash, oqizish va joylashtiriladigan chiqindilarning normativ (limitli) massasi;
- e) foydali qazilmalar xom ashyo resurslari sifatida maxsus jihozlangan chiqindi saqlash omborlarida joylashtirilgan va keyinchalik qayta ishlanadigan kon qazish sanoati chiqindilari. Nizomda ko`rsatilgan mana shu ob'ektlardan tashqari joylashtirilgan modda va chiqindilar uchun kompensastiya undiriladi va undirilgan mablag`lar muayyan hududlarning buzilgan ekotizimlarini qayta tiklashga sarf etiladi.

Mazkur Nizom asosida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O`zbekiston Respublikasi hududida suv ob'ektlari va joy relefiga ifloslantiruvchi moddalarni tashlaganlik, chiqindilar joylashtirilganligi, atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalarni chiqarib tashlaganlik, atmosfera havosiga 1 tonna motor yoqilg`isi yoqilganda (shaxsiy transportdan tashqari) ifloslantiruvchi moddalarni chikarib tashlaganlik uchun kompensa- stiya to`lovlari mikdorlarini belgiladi.

Yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlarning barchasi mamlakatimizda yuzaga kelgan mintaqaviy ekologik muammolarni bartaraf etish, yuzaga kelishi mumkin bo`lgan muammolarning oldini olishga qaratilgandir<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Rustamboyev M. . O`zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism. – Toshkent: Ilm-ziyo. 2006.-B. 53.

### **I.3. O`zbekiston Respublikasi Xalqaro ekologik hamkorlikning milliy- huquqiy asoslari**

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridan boshlab Vatanimiz hududidagi hamma tabiiy manbalar xalqimizning mulki, boyligi sifatida qonun hujjatlarida o`z aksini topdi. Bu qonun hujjatlarining asosiy maqsadi ham tabiiy manbalarni muhofaza qilish va ulardan oqiloia foydalanishni tartibga solishdir.

Mustaqilligimiz sharofati bilan tabiat muhofazasi sohasidagi qonunlar yanada takomillashmoqda. Nodavlat jamoa ekologik tashkilotlari ham kengayib bormoqda. Ular tabiatimizni asrab-avaylash, saklab qolish, odamlar orasida ekologik bilimni shakllantirish kabilarda davlat tashkilotlari bilan hamkorlikda faoliyat ko`rsatmoqdalar<sup>1</sup>.

O`zbekiston Respublikasi atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida Xalqaro hamkorligi tashqi siyosatning asosiy yo`nalishlaridan biri hisoblanib, asosiy e`tibor quyidagilarga qaratiladi:

- Orol havzasida yuzaga kelgan ekologik holatni yaxshilash;
- flora va faunaning genetik fondini saqlash;
- suv, tuproq va atmosfera ifloslanishining oldini olish;
- xavfli chiqindilarni atrof-muhitga salbiy ta'sirini minimumga va ekologik xavfsizlikni saqlash, zaharli kimyoviy moddalar ishlatilishi, shuningdek, ozon qatlamini emiruvchi moddalarni ishlab chiqarishdan olib tashlash;
- tabiiy resurslardan samarali foydalanish.

O`zbekistan Respublikasi quyidagi Konvenstiyalarga qo`shilgan: Iqlimning o`zgarishi Konvenstiyasi (1993 y.), biologik xilma-xillikni saqlash Konvenstiyasi (1996 y.), Xavfli chiqindilarni tashish va nazorat qilish buyicha «Bazel» Konvenstiyasi, Cho`llanish jarayoniga qarshi kurashish Konvenstiyasi (1995y.),Suvda suzuvchi qushlarni (Afrika, Osiyo bo`yicha) muhofaza qilish bo`yicha xalqaro Bonn Konvenstiyasini qo`llash (1995 y).

---

<sup>1</sup> Usmonov M. Tabiatni muhofaza qilishning konstitustiyaviy asoslari: Risola.-Toshkent: TDYUI. 2002.-B. 23.

Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo`mitasi Konvensiya bo`yicha quyidagi ishlarni amalga oshirishni ko`zda tutgan:

- Ozon qatlamini emiruvchi moddalarni qayta ko`rib chiqish, Vena va Monreal protokollari asosida milliy dastur yaratish va faoliyat ko`rsatish;
- biologik xilma-xillikni saqlash bo`yicha ilmiy loyiha va rejalar ishlab chiqish.

Hozirgi vaqtda O`zbekiston Respublikasi hukumati BMTning Evropa iqtisodiy komissiyasiga qo`shimcha masalalarni ko`tarib chiqmoqda. Turkiya bilan (1996 y.), Xitoy Xalq Respublikasi bilan (1997 y.) atrof-muhitni muhofaza qilish bo`yicha xalqaro bitim tuzilgan.

Shuningdek, Slovakiya, Lyuksemburg, Vengriya, Litva, Niderlandiya kabi mamlakatlar bilan bitim tuzilgan. Tashqi ishlar vazirligi Germaniya va Evropa ittifoqi bilan atrof-muhitni muhofaza qilish bo`yicha hamkorlik qilishni ham kelishdi.

O`zbekiston Respublikasida Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasi Davlatlararo ekologik kengashida faol qatnashgan. Hamdo`stlik mamlakatlari doirasida davlatimiz atrof-muhitni muhofaza qilish bo`yicha Qozog`iston, Qirg`iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Gruziya bilan bitimlar tuzdi. Shuningdek, Ukraina, Belorusiya davlatlari bilan va uch tomonlama Qirg`iziston, Qozog`iston, O`zbekiston mamlakatlari o`rtasida bitimlar tuzildi<sup>1</sup>.

Xalqimiz mustaqillikka erishgach, tabiat ob`ektlarini xalqimiz milliy boyligi sifatida e`tirof etib, tabiat qonuniyatlari ustuvorligi tan olingan holda milliy xususiyatlarimiz asosida izchil ekologik siyosat yo`lga qo`yildi.

Konstitustiyamizning 55-moddasida<sup>2</sup> “yer, yerosti boyliklari, suv, o`simlik hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralalar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir” deb qayd etilgan.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, «Tabiatni muhofaza qilish to`g`risida» (1992), «Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to`g`risida» (1993), «Suv va suvdan

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. Bizning bosh maqsadimiz- jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir.-Toshkent: O`zbekiston, 2005.-B.67.

<sup>2</sup> O`zbekiston Respublikasining Konstitustiyasi. 55-modda.-Toshkent: O`zbekiston, 2008.

foydalanish to`g`risida» (1993), «Qazilmalar to`g`risida» (1994), «Atmosfera havosini muhofaza qilish to`g`risida» (1996) gi bir qancha qonunlar qabul qilingan.

Ushbu qonunlarda tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, aholining ekologik xavfsizligini ta`minlash bilan bog`liq ijtimoiy. munosabatlarning maqsadi, vazifalari, tamoyillari, tabiiy resurslarning huquqiy holati, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari, burchlari, erkinliklari, kafolatlari, vakolatlari, foydalanish va muhofaza qilish tartibi, muddati hamda ekologik normativ-standartlarning talablari, ekologik nazorat va ekologik qonun talablarini buzganlik uchun yuridik javobgarlik chora-tadbirlari va boshqa ekologik qoida-talablar belgilangan<sup>1</sup>.

Ekologik qoida-talablarni ta`minlashda qonunosti me`yoriy hujjatlari alohida o`ringa ega bo`lib, birinchidan, qonunlarning ta`sir doiralarini kengaytirish, ikkinchidan, ularning hayotiyiligini ta`minlash, uchinchidan, turli tabiiy iqpim xususiyatlariga ega bo`lgan mintaq va viloyatlarning ekologik holatini huquqiy asosda to`g`ri tartibga solishga xizmat qiladi.

Ekologik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda huquq tizimi- ning turli soha va tarmoqlarining qonun hujjatlari va qoida-talablaridan unumli foydalaniladi, Masalan, Jinoyat kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Soliq kodeksi, Mehnat kodeksi, «Ma`muriy javobgarlik to`g`risida» gi kabi qonun hujjatlarida ham ekologik qoida-talablar mavjud bo`lib, ular bir tarafdin ekologik munosabatlarning keng qamrovligini ifoda etsa, ikkinchidan, ekologik muammolarni hal qilishda jamiyatdagi barcha kuch va vositalarni ushbu muammoning echimini topishga yo`naltiradi<sup>2</sup>.

O`zbekiston Respublikasining «Saylov to`g`risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O`zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o`zgartish va qo`shimchalar kiritish haqida»gi Qonunidan ko`zlangan asosiy maqsadlardan biri siyosiy partiyalarning roli va ta`sirini oshirish, saylov tizimi va

---

<sup>1</sup> Xojiyev E. Ma`muriy huquq. Darslik. Toshkent: - FAAK. 2006.-B. 44.

<sup>2</sup> Mirzaev T. Ekologiya va prokurorlik nazorati. // Hayot va qonun. 1999. №8.-B. 12.

qonunchiligini takomillashtirish.<sup>1</sup> Shuningdek, O`zbekiston Respublikasining ekologik harakatiga fuqarolarning qulay atrof muhit va salomatlikni muhofaza qilishga doir huquqlarini amalga oshirish va ularga rioya qilinishida, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta`minlashda keng ishtirok etish imkonini berishdan iborat<sup>2</sup>.

Ma`lumki, O`zbekiston ekologik harakatining ta`sis konferenstiyasi 2008 yilning 2 avgustida bo`lib o`tgan. «O`zbekistan ekologik harakati» jamoat tash-kilotini tuzish g`oyasi Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida ekolog olimlar, nodavlat tashkilotlar faollari, maorif va sog`liqni saqlash, ishlab chiqarish sohalari vakillari, fermerlar ishtirokida o`tkazilgan seminarlar, «davra suhbatlari»da har tomonlama muhokama qilindi.

Keng jamoatchilik, ijodkorlar, deputatlar korpusi nuqtai nazarlari o`rganib chiqildi. Ushbu jamoatchilik anjumanlari davomida bildirilgan fikrlar, istak va takliflar Harakatning konferenstiya davomida ko`rib chiqilgan Ustavi va Dasturiga asos bo`lib xizmat qildi.

Harakatning bosh shiori «Sog`lom muhit inson salomatligi» bo`lib, konferenstiya ishtirokchilari O`zbekiston ekologik harakati faoliyatining asosiy yo`nalishlarini belgilab olishdi.

O`zbekiston ekologik harakati ommaviy jamoat harakati bo`lib, u o`z safida ixtiyoriy asosda O`zbekiston fuqarolarining hozirgi va kelgusi avlodlarining qulay atrof-muhitga va sog`liqni saqlashga, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta`minlashga doir huquqlarini amalga oshirish va ularga so`zsiz rioya qilinishiga qaratilgan o`zgarishlarning chuqurlashtirilishida bevosita ishtirok etishni istovchi va bu yo`nalishda jamiyatning bor kuchchini safarbar qilishga intiluvchi mamlakat fuqarolari va tashkilotlarini birlashtiradi.

---

<sup>1</sup> Aslonov M, Abduraimov F, Bekiev O. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning huquqiy kafolati. – Toshkent: 2009.-B. 19.

<sup>2</sup>To`xtayev A. S, aydarova X. N, Mardiyeva K, Ismoilova D. Ijtimoiy ekologiya. – Toshkent: 2005.-B. 25.

Harakat jamoat birlashmasi shaklida tashkil topadi va faoliyat ko`rsatadi. O`zbekiston Respublikasi fuqarolarining va amaldagi qonunchilikka ko`ra, boshqa shaxslarning shuningdek ustav faoliyati, maqsadi va vazifalari Harakati yaqin bo`lgan nodavlat notijorat tashkilotlarini ishtirok etishi ko`zda tutilgan.

Ekoharakatning asosiy maqsadlarini quyidagilarni tashkil etadi<sup>1</sup>:

- O`zbekistonning hozirgi va kelgusi avlodlarining qulay atrof-muhitga va sog`liqni saklashga bo`lgan huquqiga rioya qilish, atrof tabiiy muhitnixonimoya qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash;
- Aholining atrof tabiiy muhitni himoya qilish, ekologiyani, suv va xavo muhitini yaxshilash, ularni zararli chiqindilardan himoyalash bo`yicha faolligini oshirish, biologik xilma-xillikni saqlash va tiklash;
- Qonunchilik talablariga rioya qilgan holda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining tabiatni muxofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi aktlari amalga oshirilishini ta'minlash, shuningdek, qonunchilikaa belgilangan tartibda ushbu soxada zarur qonun hujjatlari va boshqa normativ-xuquqiy hujjatlarning ishlab chiqilishi tashabbusini ilgari surish;
- turli fuqarolik jamiyati institutlarining ularning zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning, shu jumladan, atrof tabiiy muhitni asrash va aholi sog`lig`ini saqlash maqsadlariga ajratilgan mablag`larning okilona taqsimlanishi va sarflanishi uchun mas`uliyatini oshirish;
- Aholining ekologik madaniyatini oshirish, o`quv yurtlarida atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari bo`yicha maxsus fanlarni kiritish;

Ekologik xavfsizlik, sog`lom yashash muhitini, tabiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish atrof-muqitni muxofaza qilish davlatning, jamiyatning har bir fuqarosining vazifasi bo`lishiga erishish. Harakat o`z maqsadlariga erishish uchun quyidagi masalalarni hal qiladi hamda vazifalarni bajaradi:

---

<sup>1</sup> Ashurmetov O. A, Raimova T. T. Ekologiya. – Toshkent: Chinor ENK, 2008.-B. 87.

- jamoatchilikning atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekologik sharoitni sogʻlomlashtirish ishlarida faol ishtirok etishini kuchaytirish;
- atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bulgacha qonunchilikning yanada takomillashtirilishi va rivojlantirilishiga koʻmaklashish;
- atrof tabiiy muhitni himoya qilish masalalari boʻyicha qonunlar va davlatning boshqa qarorlari soʻzsiz bajarilishi va shu maqsadlarga yoʻnaltiriladigan davlat mablagʻlaridan oqilona foydalanish ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;
- aholining ekologik madaniyatini oshirish, ekologik taʼlim va tarbiya tizimini rivojlantirish;
- atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasida xalqaro xamkorlikni rivojlantirish;
- Harakatning jamoaviy ishtirokchisi boʻlgan nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish.

Harakat quyidagi huquqlarga ega:

- Oʻz ishtirokchilarining huquqlarini ifodalash va himoya qilish;
- ijtimoiy hayotning turli masalalari boʻyicha tashabbus bilan chiqish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga takliflar kiritish;
- qonunchilikda koʻzda tutilgan tartibda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari qarorlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;
- belgilangan tartibda ramziy belgilarini taʼsis etish;
- oʻz faoliyati xaqida axborot tarqatish;
- noshirlik faoliyatini, maʼrifiy faoliyatni amalga oshirish, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga koʻra koʻrgazmalar, sport tadbirlarini va boshqa tadbirlarni oʻtkazish;
- ustav vazifalarini bajarish uchun tadbirkorlik tuzilmalarini yaratish.

Harakat oʻz ishtirokchilarini Oʻzbekiston Respublikasining maʼmuriy-hududiy boʻlinishiga koʻra hududiy tamoyil asosida birlashtiradi. Harakatga aʼzolik qatʼiy belgilab qoʻyilmagan. Ekoharakatga ham fuqarolar, ham nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirokchi boʻlishi mumkin<sup>1</sup>. Harakat ishtirokchilarini ularning faoliyatini boshqarish

---

<sup>1</sup> Xolmoʻminov J. Ekologiya va qonun. – Toshkent: Adolat, 2000.-B. 22.

va muvofiqlashtirish maqsadida bevosita birlashtiruvchi tashkiliy asosi Markaziy Kengash qaroriga ko`ra tashkil etiladigan Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo`linmalari hisoblanadi. Harakat konferenstiyasi oliy rahbariy organ bo`lib, besh yilda bir marta chaqiriladi. Harakat konferenstiyasidagi oralig`idagi rahbariy organ Markaziy Kengashdir. Markaziy Kengash Harakat manfaatlarini ifodalaydi va uning nomidan ish yuritadi, Harakatning ustav vazifalari va dasturiy vazifalari ijrosini tashkillashtiradi.

Ekologik vazifalarni hal qilishga yangicha yondashuvlarning ahamiyati O`zbekiston bilan Rossiya o`rtasida 2009 yilning 22-23 yanvarida bo`lib o`tgan oliy darajadagi muzokaralar davomida ifodalandi. Mamlakatlarimiz rahbarlari transchegaraviy daryolarda gidrotexnik inshootlar qurilishi bo`yicha savollarga javob berar ekan, bunday hollarda qo`shni davlatlar bilan kelishuvga erishish, inshootning ekologik xavfsizligini kafolatlash, tegishli xalqaro me`yorlar va qo`shni davlatlar bilan tuzzilgan ikki tomonlama hujjatlarga rioya qilish zarurligini ta`kidlashdi<sup>1</sup>.

Keyinchalik, O`zbekiston va Turkmaniston rahbarlarining oliy darajadagi muzokaralari davomida transchegaraviy darslar oqimini kamaytirishga yo`l ko`ymaslik zarurligi, shuningdek, manfaatdor davlatlar tomondan oshkoralik va to`liq xabardorlik tamoyillari asosida transchegaraviy daryolarda gidrotexnik loyihalarni amalga oshirish davomida mustaqil xalqaro texnik-iktisodiy va ekologik ekspertiza o`tkazilishi zarurligi ta`kidlandi.

Shu munosabat bilan qayd etish zarurki, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2007 yilning avgustida Bishkekda o`tgan sammit paytidayoq transchegaraviy daryolardan foydalanish tamoyillarini sanab o`tgan, ya`ni Markaziy Ospe daryolari suv resurslaridan foydalanish masalalari minta-qaning barcha davlatlarida qabul qiluvchi 50 milliondan ziyod aholinpng manfaatlarini e`tiborga olgan holda hal qilinishi lozim; ushbu daryolarda amalga oshiriladigan har qanday xatti-harakatlar mintaqada qaror topgan ekologik balansga va suv balansiga salbiy ta`sir ko`rsatmasligi kerak.

---

<sup>1</sup> O`zbekiston Respublikasining tabiatni muhofaza qilish to`g`risidagi qonuni.

Suvdan foydalanish va ekologiya sohasidagi amaldagi xalqaro-huquqiy baza Markaziy Osiyo transchegaraviy daryolari resurslaridan birgalikda foydalanish bo'yicha samarali tizim qurilishiga zamin hozirlashi kerak.

Istambulda 2009 yilning 16-22 martida bo'lib o'tgan beshinchi Jahon Suv forumi yaxtalarini ham qayd etib o'tish kerak. Unda dunyoning 130 mamlakatidan 30 minpa yaqin ishtirokchi, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi delegastiyasi ham qatnashdi. Jahon suv forumi faoliyati natijalariga kura Bayonot qabul qilingan va unda xususan, ta'kidlanadiki, xalqaro miqyosda «suv resurslariga bo'lgan talabni boshqarishni suvdan qishiloq xo'jaligi maqsadlarida foydalanish samarali tizim qurilishiga zamin hozirlash kerak<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muofaza ilish Davlat qo'mitasining O'zbekiston Respublikasida atrof muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan foydalanishning holati to'g'risidagi Milliy ma'ruzasi. – Toshkent: Xan DA. 2006.-B. 9.

## **II. O`zbekiston xalqaro ekologik hamkorligining asosiy xususiyatlari**

### **II.1. O`zbekiston xalqaro ekologik hamkorligining asosiy yo`nalishlari**

Bugun Markaziy Osiyo katta e'tibor karatilayotgan mintaqa. U Orol inqirozi oqibatlarini bartaraf etishga oid vazifalarni xalqaro etish yullarini izlash uchun sayxarakatlarni muvofiklashtirish, barqarorlik va xavfsizlikni taminlashga katta hissa ko`shayotgan xalqaro hamkorlik maydonidir.

O`zbekiston mustakillikka erishgandan buyon yuzdan ortik mamlakat bilan diplomatik munosabatlar o`rnatdi va 150dan ortik xalqaro konvensiya va protokolni ratifikatsiya kildi. 1992 yildan beri respublika, Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari kabi, Mustakil Davlatlar Hamdo'stligi (MDX) a`zosi xisoblanadi. 1992 yilda O`zbekiston BMTning a`zosi bo`ldi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimidagi qator dasturlar va ixtisoslashgan muassasalar, shu jumladan BMTning Barqaror rivojlanish bo`yicha komissiyasi bilan xamkorlik qilib kelmoqda. O`zbekiston Evroosiyo iqtisodiy xamjamiyati (EvrOIX), "Markaziy Osiyo xamkorlik" tashkiloti (MOXT), Shanxay xamkorlik tashkilotiga (ShTX) a`zo. Mintakada suv resurslaridan foydalanishni muvofiklashtirish borasida O`zbekiston yirik mintaqaviy tuzilmalar Iqtisodiy xamkorlik tashkiloti (ITX) va Markaziy Osiyo Mintaqaviy iqtisodiy xamkorligiga a`zo<sup>1</sup>.

Global va mintaqaviy sheriklik O`zbekiston Respublikasi 2002 yil fevraldan Suv buyicha global hamkorlik (SGX) azosi. Markaziy Osiyo va Kavkazortining Suv buyicha mintaqaviy hamkorligi (SASENA) suvni boshqarish va undan foydalanishga aloqador tashkilotlar (davlat departamentlari, maxalliy va mintaqaviy tashkilotlar, professional uyushmalar, ilmiy-tadqiqot (EUWI) institutlari, xususiy tarmoq va NNTlar)ni o`zaro tajriba o`rganish, axborot almashish va salohiyatni rivojlantirish maqsadida ixtiyoriylik asosida birlashtirgan. SGX yondashuvlarini joriy etish buyicha mintaqaviy tashkilotlarning faoliyati, ortirilgan tajriba va saboklar keyingi qismlarda ko`rib chiqilgan.

O`zbekiston Respublikasi Evropa Ittifoqining Suv bo`yicha tashabbusida

---

<sup>1</sup><http://www.Referat.Ru>.

(EUWI) ishtirok etadi. Faoliyati Barqaror rivojlanish uchun harakat dasturini (WSSD) amalga oshirish borasidagi suv buyicha strategik hamkorlikning asosini taminlaydi xamda suv resurslari bilan bog`liq ming yillik rivojlanish maqsadlariga erishishga xissa ko`shadi. Bu tashabbus doirasida EI yakin xamkorlikni mustaxkamlashga intilmokda. Bugun maksad: siyosiy maksad va xarakatlarga oid majburiyatlarni mustaxkamlash;

-suv boshqaruv tuzilmalarini samarali qilish va institustional saloxiyatni kuchaytirish;

-muvofiklashtirish va xamkorlikni yaxshilash;

-EIning mavjud moliyaviy oqimlari samaradorligini oshirishdir.

Bu tashabbuslarning siyosiy ko`llab-kuvvatlanishini suv bilan boshlik asosiy vazifalarga erishish borasidagi majburiyatlarni mustaxkamlaydi va shu manoda EI o`z zimmasiga olgan o`rta muddatli majburiyatlarni ado etishga sodiq ekanligini tasdiqlaydi. 2015 yilgacha toza ichimlik suvi va sanitariyadan foydalana olmayotan odamlar sonini (axoli o`shishiga mos ravishda) kamaytirish; 2015 yilgacha suv resurslarini integrastiyalashgan xolda boshqaruvni (SRIB) va hamma mamlakatlarda suvdan samarali foydalanish rejalarini rivojlantirish. EI tashabbusi bu borada o`ziga xos "soyabon" yaratishni taminlashga qaratilgan bo`lib, uning zamirida ushbu harakatlar ketma-ketligini tashkil etish va amalga oshirish mumkin bo`ladi. Bu tizim xamkorlikni rivojlantirish va faoliyatni muvofiklashtirish, tuzilmalar ishi samaradorligini oshirish va tarmoklararo yondashuvlarni joriy etish uchun turli mexanizmlarni taklif qilmoqda.

1998 yili Respublika Markaziy Osiyo va ESKATO davlatlari bilan birga donor mamlakatlar ko`magida BMTning Markaziy Osiyo mamlakatlari iktisodiyoti bo`yicha maxsus dasturini (SPEKA) amalga oshirishga tayyorligini bildirdi. Dasturning ustivorliklaridan biri mintaqa energetika va suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanishdan iboratdir. YUNEP ko`magida Markaziy Osiyoning 5 davlatida xam o`z milliy ofisiga ega Mintaqaviy ekologik markaz tashkil etildi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Alixonov B, Samaylov S. Mintaqaviy ekologik muammolar va milliy ustuvorlik.//Huquq va burch. 2010. № 10.-B. 17.

2004 yili O`zbekiston Respublikasi, "Markaziy Osiyo hamkorligi" tashkilotiga azo boshqa davlatlar va Jaxon bankining vakolatxonalarini suv-energetika resurslarini birgalikda boshqarish sohasida Xalqaro suv-energetika konsorsiumi konstitutsiyasini qabul qildi. Konsorsium MOXga azo mamlakatlar suv xo`jaligi, yoqilg`i-energetika va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari xo`jalik subektlari uchun qulay iqtisodiy va xuquqiy sharoit yaratish bo`yicha barcha azo davlatlarning kelishilgan nuqtai nazarini aks ettiradi. Konsorsium ishiga nazorat organi azo davlatlar muxtor vakillari kengashi rahbarlik qiladi. U tomonlar teng vakilligi tamoyili asosida shakllantiriladi. Qarorlar qabul qilishda xar bir tomon teng ovozga ega. Qarorlar tomonlarning to`liq roziligi bilan qabul qilinadi.

Gidrologiya va meteorologiya sohasida O`zbekiston Respublikasi jaxon meteorologiya tashkilotining deyarli barcha dasturlari (gidrologiya, meteorologiya, iqlim, axborot, o`qitish, gidrometeorologiya xavfsizligi buyicha xalqaro o`n yilliklar o`tkazish sohasida) ishtirokchisi xamda YUNESKOning xalqaro gidrologik dasturi va Gidrometeorologiya bo`yicha MDX mamlakatlari davlatlararo kengashi azosidir<sup>1</sup>.

O`zbekistonning ilmiy salohiyatini yanada mustaxkamlashga xalqaro suv va qishloq xo`jaligi tashkilotlari IWMI, ILRI, ICARDA singari tashkilotlar bilan sheriklik xam salmoqli xissa ko`shmoqda. Jaxon banki, FAO, BMT Taraqqiyot dasturi va qishloq xo`jaligini rivojlantirish xalqaro jamg`armasi (IFAD) tomonidan moliyalanadigan Xalqaro qishloq xo`jaligi tadqiqotlari bo`yicha maslaxat guruxi (XKXTMG) Kelgusi xosil markazi kabi mashxur 15 qishloq xo`jaligi ilmiy-tadqiqot tashkilotini birlashtiradi. XKXTMG ilmiy izlanishlar o`tkazish va mutaxasislarni o`qitish, oziq-ovqat ishlab chikarish, samaradorlik va sifatini o`stirish qurg`oqchil xududlar axolini turmush darajasini oshirishni maqsad qilgan. Ayni paytda u su v va er resurslarini himoya qiladi.

O`zbekiston Respublikasi Irrigastiya va Drenaj bo`yicha xalqaro komissiyaning (IDXK) ishida faol ishtirok etadi va uning yuridik azosi xisoblanadi. IDXK tarkibida Orol dengizi xavzasi bo`yicha aloxida ishchi gurux tuzilgan (ST-Aral). O`zbekiston

---

<sup>1</sup><http://www.Bankreferatov.Ru>.

vakillari IDXX kongress va konferenstiyalari ishida faol ishtirok etmoqda.

BMT cho'llanishga qarshi kurash konvensiyasi ijrosi doirasida O'zbekiston Respublikasi 2003-2008 yillarda Osiyo uchun mintaqaviy xarakat dasturi va 2003 yilda Gavanada qabul qilingan Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurash bo'yicha submintaqaviy xarakat dasturi ishtirokchisi xisoblanadi. Takidlash joizki, 1994 yilda respublika cho'llanishga qarshi kurashda xarakatlarni muvofiqlashtirish bo'yicha NNTlar va maxalliy tashkilotlar xalqaro tarmog'iga azo bo'ldi (RIOD).

Markaziy Osiyo mamlakatlarining er resurslarini boshqarish borasidagi tashabbusi ko'plab donorlar ishtirokidagi davlatlararo sheriklikning yaqqol misoli bo'la oladi. Bu dasturning vazifasi er va suv resurslarini barqaror boshqarishga xar tomonlama va integrastiyalashgan yondashuvlarni rivojlantirish va amalga oshirishga ko'maklashish maksadida erlarning tanazzuliga qarshi kurashish va Markaziy Osiyo mamlakatlarida kam taminlanganlikni kamaytirishdan iboratdir<sup>1</sup>. Ushbu tashabbus Strategik sheriklik (SSh) ishtirokida BMT cho'llanishga qarshi kurash konvensiyasi ijrosi doirasida Markaziy Osiyo mamlakatlarida amalga oshirilmoqda. Unga SSh ga Global mexanizm, OTB, qishloq xo'jaligini rivojlantirish xalqaro jamg'armasi (IFAD), GTI (Olmoniya), Shveystariyaning xalqaro taraqqiyot va xamkorlik agentligi (SIDA), Qur RIOD-Markaziy Osiyo KYUVning ko'maklashuv tizimi sifatida tashkil etilganni 1994 yil Uagadugu (Burkina Faso) xalqaro konferenstiyasida elon qilindi. Xozirgi vaqtda RIOD dunyoning 100 dan ortiq mamlakatidagi NNTlarni birlashtirgan. RIOD bir nechta bosqichdagi muvofiklashtiruvchi tuzilmalardan iborat (global milliy va submilliychaga) va mintaqaviy-qitalar, shu jumladan Osiyoda xam.

O'z navbatida, u submintaqalarga bo'linadi. 1996 yil yanvardan boshlab Markaziy Osiyo ana shunday submintaqalardan biri deb etirof qilindi. RIOD global muvofiklashtiruvchi qo'mitasi azosi Oleg Staruk. Uning manzili Biostan ekomarkazi (BIOSTAN), O'zbekiston, Toshkent; Katena ekoklubi (CATENA), Ashgabat. [ots@uzsci.net](mailto:ots@uzsci.net).

---

<sup>1</sup><http://www.Koob.Ru>.

Donorlik faoliyati O`zbekiston mustaqillikka erishgandan boshlab bir qator xalqaro moliyaviy muassasalar, shu jumladan Jaxon banki (JB), Evropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB), Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Xalqaro valyuta jamg`armasi (XVJ), Global ekologik jamg`arma (GEJ) va boshqalar bilan yaqin xamkorlik qilib kelmoqda.

Qurg`oqchil mintaqalarda qishloq xo`jaligi tadqiqotlari xalqaro markazi (ICARDA) va BMT Taraqqiyot dasturi kiradi. Ular xalqaro investistiyalar, dunyo tajribasi va toza texnologiyalaridan foydalanishda katta yordam ko`rsatmoqda. Atrof muxitni saqlash bo`yicha Xalqaro loyixalarni bajarishda moliya resurslarining asosiy manbasi Global ekologik fond.

Atrof-muxitni muxofaza qilish soxasidagi xalqaro loyixalarni bajarishdagi moliyaviy resurslarning asosiy manbai Global ekologik jamg`armadir. Tabiatni muxofaza qilish borasidagi sheriklikning misollaridan biri BMT Taraqqiyot dasturining "Atrof-muxit" dasturi bo`lib, u 2001-2005 yillarga mo`ljallangan. Bu dastur BMT Taraqqiyot dasturi va O`zbekiston xukumatining ekologiyaga oid loyixalarni amalga oshirish va barqaror rivojlanishning muxim masalalarini hal qilishdagi samarali xamkorligini boshlab berdi<sup>1</sup>.

Atrof-muhitni ximoya qilish bo`yicha faoliyatni kuchaytirish va bu boradagi umumjaxon maqsadlarini milliy strategiyalar va dasturlarga integrastiyalash uchun Global ekologik jamg`arma global ekologik Konvenstiyalarni amalga oshirish buyicha saloxiyatni rivojlantirish extiyojini milliy darajada baxolash tashabbusi bilan chiqdi. O`zbekiston xukumati bu tashabbusning muximligini e`tirof etib, uni to`liq ko`llab-quvvatladi va 2004 yilda BMT Taraqqiyot dasturining texnik ko`magida mazkur loyixani amalga oshirishga kirishdi.

Xalqaro tashkilotlarning sa`y-xarakatlari isloxotlarni qo`llab quvvatlash va iqtisodiyotning turli tarmoqlarini institustional rivojlantirish, mamlakatga yordam ko`rsatish strategiyalari va dasturlarini texnik maqbul, iqtisodiy ishonchli va ekologik

---

<sup>1</sup> Alixonov B, Samaylov S. Mintaqaviy ekologik muammolar va milliy ustuvorlik.//Huquq va burch. 2010. № 10.-B.18.

xavfsiz choralar asosida amalga oshirish, atrof-muhit va tabiiy resurslarni boshqarishning samarali tizimini yaratish, mamlakatda turmush darajasini oshirishga qaratilgan. Donorlik ishtirokining 73 foizga yaqini suv tarmog`i va salomatlik soxasiga to`g`ri keladi.

Global ekologik jamgarma GEJ - xalqaro trust jamg`armasi bo`lib, atrof-muhitning global ahamiyatga ega elementlarini muxofaza qilish va ekologik xavfsizlik barqaror iqtisodiy rivojlanishga ko`maklashish maqsadida tashkil etilgan soxasiga GEJning dasturiy faoliyati quyidagi soxalarga qaratilgan: biologik xilma-xillik, xalqaro suv ob`ektlari, iqlim o`zgarishi, ozon qatlamining parchalanishi va cho`llanish muammosi<sup>1</sup>.

GEJ resurslarini uchta ijrochi agentlik boshqaradi: BMT Taraqqiyot dasturi, BMTning Atrof-muxit buyicha dasturi va Jaxon banki.

MOMERBT ma`lumotlariga (2006) ko`ra, donorlarning mamlakatda asosiy tarmoqlarni rivojlantirish va isloxotlarni qo`llab quvvatlashga ko`shgan umumiy xissasi so`nggi besh yilda qarib 686 million AKSh dollarni tashkil etdi. Ular qo`shgan xissaning aniq manzarasi o`z aksini topgan.

O`tgan o`n yilda donorlar ko`magida milliy strategiyalar, dasturlar va xarakat rejalari ishlab chiqildi, ular bevosita yoki bilvosita tabiiy resurslar va atrof- muvofik turli tarmoklar yunalishlarda bir qator loyixalar amalga oshirilmokda. Donorlarning bunday ishtiroki isloxotlarni yanada rivojlantirish xamkorlik uchun qulay muxit, tabiiy resurslarni birgalikda boshqarish va mintaqada barkarorlikka erishish uchun poydevor yaratmoqda.

Saloxiyatni kuchaytirish, suv resurslari va atrof-muxitni integrastiyalashga; boshqarishning afzalliklarini namoyish qilishda ularning sa`y-xarakatlari yanada kengroq ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro xamjamiyatning mamlakat suv tarmog`iga qo`shayotgan xissasi katta

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.- Toshkent: O`zbekiston, 1995.-B. 120.

ekanligiga qaramay, bunday yordam xali xam etarli emas va suv-energetika resurslaridan foydalanish va atrof-muxitni muxofaza qilishni yaxshilash uchun zarur xarajatlar mikdoridan ancha kam. Birlashgan boshkaruv va karorlar kabul kilish uchun huquqiy bazani yanada yaxshilash, institustional rivojlanish va saloxiyatni kuchaytirish bo`yicha birgalikdafaoliyatni muvoffiqlashtirish muxit tanazzuliga qarshi kurash muammolari bilan bog`liq. Bu xujjatlar mexanizmlari takomillashtirilishi lozim. Bu esa milliy darajada suv energetika resurslarini integrastiyalashgan boshqaruvni rivojlantirish uchun mustaxkam asos yaratadi. Hamda uning atrof-muxitni ximoya qilish bo`yicha mintaqaviy va global ishlarga uyg`un integrastiyasini ta`minlaydi. Suv O`zbekiston uchun muxim xayotiy resurs.

O`zbekiston Respublikasi xududining kattali-koylashgan eri, boy tabiiy resurslari va merosi buyicha Markaziy Osiyo o`lkasining Orol dengizi xavzasidagi eng asosiy davlatlaridan biridir<sup>1</sup>.

O`zbekiston - madaniyati yuksak rivojlagan davlat bo`lib, ildizlari kadimgi Sug`diyona, Baqtriya, Marg`ilon, Shosh, Xorazm va Turon stivilizastiyasi davriga borib taqaladi. Vir paytlar O`zbekiston Eron, Arabiston, Xitoy, Grestiya va boshka davlatlar ta`sirida bo`lgan. Bugun mustaqil O`zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydi, mahalliy xalk o`zbeklar, ular Respublika axolisining 3/4 ko`proq qismini tashkil etadi.

---

<sup>1</sup> O`zbekiston Respublikasining Ekologik ekspertiza to`g`risidagi qonuni. 25. 05. 2000.-B. 45.

## II.2. Xalqaro ekologik hamkorlik istiqbollari

O`zbekiston Respublikasi xalqaro xuquqning to`laqonli sub`ekti sifa-tida atrof tabiiy muqitni muhofaza qilish, aholi salomatligini himoyalashlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta`minlashga yo`naltirilgan izchil va samarali siyosat olib bormokda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi natijasida tabiatdan oqilona foydalanish mexanizmlari ishlab chiqildi<sup>1</sup>.

Yurtimiz Markaziy Osiyo submintaqasida biosfera funkstiyalarining saqlab turilishida hal kiluvchi rol o`ynaydi. Ayniqsa, tabiiy resurslar, intellektual va iqtisodiy salohiyatimpz mintaqaviy ekologik muammolarni hal ztishda muhim axamiyat kasb etadi. O`zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Evropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti bilan atrof-muxit va barqaror rivojlanish bo`yicha o`nlab muxim koivenstiyalarni ratifikastiya qildi. Barqaror rivojlanish Konstepstiyasi va Milliy strategiyasi, "XXI asr kun tartibi", biologik xilma-xillikni saqlash, cho`llanishga qarshi kurash, ozon katlamini emiruvchi moddalardan foydalanishni kamaytirish, aholi salomatligini saqlash, chpkindi boshqarish Milliy harakat rejalari, issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish Milliy strategiyasi shular jumlasidandir<sup>2</sup>.

Darxaqiqat, atrof tabiiy muhit va aholi salomatligini muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta`minlash, ekologik-xukuqiy munosabatlarni tartibga solishda qonun hujjatlarining ahamiyati katta. Davlat ekologik siyosatining muvaffaqiyatli olib borilishi qonunchilik hujjatlarining holati va takomillashtirilishiga bevosita bog`liq. Shunday ekan, ekologik qonunchilikni bosqichma-bosqich va tizimli takomillauqtirib borish davlatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Islom Karimov ta`kidlaganidek, bugungi kunda ekologik yo`nalishdagi 100 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotnn birlashtirgai O`zbekiston Ekologik harakatidan O`zbekiston Respublikasi

---

<sup>1</sup> Xolmo`minov J. Ekologiya va qonun. – Toshkent: Adolat, 2000.-B. 53.

<sup>2</sup> Alixonov B.Ekologik qonunchilik istiqboli. //Huquq va burch. 2010. № 51.-B. 7.

Oliy Majlisi Konunchilik palatasiga saylangan deputatlar oldida mas'uliyatli vazifalar turibdi.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish maksadida Harakat dasturi ishlab chiqildi. Dasturning strategik maqsadi mamlakatimizning tabiiy eko tizimlarini asrash, aholi salomatligini yaxshilash, farovonligini oshirish hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashdan iborat. Ta'kidlash kerakki, ekologik konunchilik bir vaqtning o'zida davlat ekologik siyosatini mustahkamlash vositasi va asosiy shakli xisoblanadi. Shu bois xam, davlat boshqaruvining barcha bo'g'inlarida uning ijro etilishi monitoringini olib borish muxim axampyatga ega<sup>1</sup>.

Tabiiy muxitni muhofaza qilish, aholi salomatligini himoyalash bo'yicha maxsus qonunchilik hujjatlari tizimini rivojlaitirish hamda boshqa soxalardagi qonunchilikning ekologiya talablariga mutanosibligini, uning jamiyat extiyojlariga muvofiqligini ta'minlash hamda ekologik konunchilik me'yorlari va talablarini amalga oshirshp mexanizmlarini shakllantirish ekologik konunchilikni takomillashtirishning asosiy mezonlari sanaladi. Shuningdek, hal qiluvchi xalqaro huquqiy hujjatlarga qo'shilish, ratifikastiya va implementastiya qilish, ularnng ijrosi bo'yicha nazorat-tahliliy faoliyatni kuchaytirish lozim.

Har kandy davlatniig barqaror rivojlanishi atrof-muhitni munosib himoya qilish, tabiiy resurslardan okilona foydalanishga bog'lik. Buning uchun esa ekologiya sohasidagi yagona davlat siyosatini boskichma-boskich amalga oshirish talab etiladi. Tabiiy tizimlarning saqlanishi xamda qayta tiklanishi esa davlat va jamiyat faoliyatining asosiy yo`nalishlaridan biri bo`lishi shart.

Maxsus qonunchilik hujjatlari tizimini rivojlantirish ekologik xuquqbuzarliklar uchun tegishli javobgarlik mukarrarligini ta'minlash, uni qo'llash amaliyotining hukuqiy tartiblarini belgilash, ekologik ta'lim-tarbiyani takomillashtirish hamda 6u boradagi muammolarni hal etishga keng jamoatchilik e'tiborini jalb kilishni talab etadi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining tabiiy resurslardan foydalanish va tabiatni muxofaza qilish qonunchiligni hamda boshqa soxalardagi xuquqiy me'yorlar

---

<sup>1</sup>Ashurmetov O. A, Raimova T. T. Ekologiya. – Toshkent: Chinor ENK, 2008. –B. 44.

o`rtasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish, zarur me`yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilish orqali qonun hujjatlarini ijrosini ta`minlash, huquqiy tizimda atrof tabiiy muhitga antropogen ta`sirni kamaytirishni ta`miilovchi xalqaro ekologik standartlarni joriy etish kerak.

Shuningdek, xalqaro shartnomalar bo`yicha majburiyatlar doirasida mamlakatimiz qonunchiligini mazkur sohadagi xalqaro huquq me`yorlariga uyg`unlashtirish, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasida aholi, xo`jalik yurituvchi sub`ektlar va davlat manfaatlari o`rtasidagi nizolarni hal etishning sud mexanizmlarini rivojlantirish va faollashtirish, noqonuniy faoliyatni to`xtatish mexanizmlarining to`liq ko`llanilishini ta`minlash lozim.



Ushbu vazifalarni amalga oshirish maksadida O`zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to`g`risida"gi, "Atmosfera xavosini muhofaza qilish to`g`risida"gi, "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to`g`risida"gi, "O`simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to`g`risida"gi, "Xayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to`g`risida"gi, "Davlat sanitariya nazorati to`g`risida"gi, "Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to`g`risida"gi "O`rmon to`g`risida"gi, "Chiqindilar to`g`risida"gi qonunlarini, Er kodeksi va boshqa me`yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish zarur, deb hisoblaymiz<sup>1</sup>.

Chunonchi, 1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan "Tabiatni muhofaza qilish to`g`risida"gi Qonun mustaqillikning ilk davrlarida ishlab chiqilgan birinchi yaxlit turdagi qonuniy hujjat hisoblanadi. Bugungi kunda respublikada atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta`minlash bo`yicha 20 dan ortiq muhim qonun va yuzlab qonunosti normativ hujjatlar

---

<sup>1</sup> Safarov J. Ekologik qonunchilik: tushuncha va tizim.// Tabiat va qonun. 2010. -№1.-B. 17.

qabul qilindi. Mamlakatning asosiy ekologik qonuni, yukorida qayd etilgan ekologik xarakterdagi milliy, xalqaro huquqiy hujjatlarning asosiy prinsiplari, harakatlar mexanizmi va ijara yo`nalishlari bilan uyg`unlashtirilishi va ularni o`zida aks ettirmog`i lozim. Shunga ko`ra, mazkur qonun mamlakatimiz ekologik siyosatining barcha ekologik huquqiy munosabatlari va me`yoriy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, texnik mexanizmlarini to`liq aks ettirishi lozim. Shu bois xam, hozirda mazkur qonunni yangi taxrirda qabul qilish uchun huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy (sharoit etildi, deyishga asos bor. Ko`zda tutilayotgan yangi tahrirdagi qonun quyidagilarni qamrab olishi kerak:

— atrof tabiiy muxitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, davlat, jamiyat va shaxs ekologik xavfsizligini ta`miinlashning tamoyillari va me`yorlari;

- jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlarini va ekologik huquqlarini himoya qilinishini ta`minlovchi mexanizmlar;

— atrof tabiiy muhit muhofazasi borasida barcha davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, jamoat tashkilotlari, yuridik va jismoniy shaxslar faoliyatini muvofiqlashtirish:

— ekologik huquq tartibotiga amal qilish;

— ekologik jihatdan xavfli faoliyat shorlarini amalga oshirishda sodir etiladigan ekologik huquqbuzarlik natijasida etkazilgan zararni qoplash bo`yicha qo`llaniladigan ekologik choralar tizimini takomillashtirish;

- ekologik nazoratni yanada takomillashtirish va kuchaytirish.

Shu bilan birga, "Tabiatni muhofaza qilish to`g`risida"gi Qonun davlat ekologik siyosatining umumiy, kompleks tamoyillarini o`zida ifoda etmog`i lozim. Ekologiya sohasidagi maxsus qonunlarda, umumiy tamoyillar bilan bir qatorda, aniq ekologik munosabatlarning ayrim xususiyatlari xam alohida aks yetirilishi kerak<sup>1</sup>.

O`zbekiston Respublikasining "Favqulodda ekologik vaziyatlar va ofatlar xududlari to`g`risida"gi, "Ekologik nazorat to`g`risida"gi, "Ekologik sug`urta to`risida"gi, "Tabiatdan oqilona foydalanish iqtisodiy rag`batlantirish to`g`risida"gi, "Davlat ekologik xizmati to`g`risida"gi va boshqa yangi qonunchilik loyihalarini

---

<sup>1</sup> Alixonov B, Samaylov S. Mintaqaviy ekologik muammolar va milliy ustuvorlik.//Huquq va burch. 2010. № 10.-B. 18.

ishlab chiqish va qabul qilish zarurati paydo bo`lmoqda. Ma'lumki, yangi qonunlarni yaratish, o`zaro uzviy bog`lik qonunchilik xujjatlari bilan ishlash vaqtida ularni kodlashtirish muammosi yuzaga keladi. O`zbekiston Respublikasi ekologik siyosati qonunchiligi asoslariniig hozirgi kundagi xolati yangi kompleks xarakterdagi umumlashtirilgan bosh kodlashtirish aktini qabul qilishni taqozo etadi. Ekologik konunchilikni kodlashtirish jamiyat va tabiatnng o`zaro munosabatida siyosiy-xuquqiy, njtimoiy-iqtisodiy shart sharoitlarga hamda yangi mazmundagi normativ xujjatlarni ishlab chiqishni ilmiy-amaliy jihatdan asoslashga tayanuvchi murakka6 qonunchilik jarrayoni xisoblanadi.

Unga quyidagi bosqichlarda o`tish zarur; Birinchi bosqich yangi taxrirdagi O`zbekiston Respublikasining tabiatni muhofaza qilish soxasida yangi qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish.

Ikkinchi bosqich — O`zbekiston Respublikasining Ekologik kodeksini ishlab chikish va qabul qilish.

Birinchi boskich 2010-2012 yillarni qamrab oladi hamda atrof tabiiy muxitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalannsh va ekologik xavfsizlikni ta'minlash soxasidagi konun xujjatlari to`plaming bosh kodlashtirilgan majmuaga birlashtirilishi asosida ekologik-xukukiy munosabatlarning shakllanish davri bo`ladi.

Mazkur boskichda atrof-muxitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ekologik xavfsizlikni ta'minlashning huquqiy asoslarini takomillashtirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlashning asosiy tamoyillari va talablarini mustaxkamlash, bu boradagi ijtimoiy- iqtisodiy mexanizmni aniq belgilab qo`yish, ekologik xavfsizlikni ta'minlashning ogoxlantiruvchi choralarini optimallashtirish, yuridik va jnsmoniy shaxslarning ekologik-xuquqiy madaniyatini shakllantirish, jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirishga keng jalb qilish, ekologik qonunchilikni buzganlik uchun huquqiy javobgarlik choralari samaradorligini oshirish kabi bir qator vazifalarni hal etish ko`zda tutilmoqda<sup>1</sup>.

Ekologik qonunchilikni takomillashtirish tabiat qonuniyatlariga rioya etish,

---

<sup>1</sup> Ashurmetov O. A, Raimova T. T. Ekologiya. – Toshkent: Chinor ENK, 2008.-B. 34.

atrof-muxitga salbiy ta'sir qiluvchi faoliyatga yo'l qo'ymaslikning asosiy mezonidir. Ularni bilish va hisobga olish, tabiatdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlarini qo'llash, ekologik sertifikatlashtirish va standartlashtirish, ekologik toza (kam chiqindili) texnologiyalarni tatbiq etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va tabiatni muhofaza qilishning boshqa huquqiy chora-tadbirlarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega<sup>1</sup>.

Atrof-muxit va tabiat boyliklarini, eng avvalo, jamiyat manfaatlari nuqtai nazaridan muhofaza qilinadi. Zero, ona tabiatning in'omlaridan nafaqat biz, balki kelajak avlodlarimiz ham bahramand bo'lishi kerak. Ishlab chiqarishning juda tez sur'atlarda rivojlanayotgani, axoli sonining ortib borayotgani, tabiiy boyliklarning kamayib, atrof-muhitning chiqindi moddalar bilan ifloslanayotgani tabiat muxofazasini kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb masalalardan biriga aylantirdi. Chunki ekologik toza muxit Vatan va kelajak avlod takdirini belgilovchi eng acociy omillardan biri sanaladi. Atrof-muxitning sof xolda saqlanishi kelajak avlodning har tomonlama sog'lom o'sishi garovidir. Yuksak ma'naviyatli, jismoniy baquvvat, zamon bilan xamnafas ulg'aygan yigit-qizlargina Vatan taraqqiyoti yurt istikboliga o'zlarining munosib ulushlarini qo'sha oladilar. Shunday ekan, ko'p qirrali ekologik muammolarni bartaraf etish uchun xar birimiz mas'ullik hissini tuyib, hamjihatlikda harakat qilishimiz zarur.

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. O'zbekiston milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura.-Toshkent: O'zbekiston, 1996.-B. 34.

## Xulosa

Shuni xulosa o`rnida aytish joizki O`zbekistonning xalqaro hamkorligi nafaqat ekologik barqarorlikni ta`minlashda, balki hamkorlikning huquqiy asoslarini ham belgilab beradi. O`tish davri sharoitlarida O`zbekistonda iqtisodiy sektorlarda tabiiy resurslardan foydalanish darajasiga so`zsiz ta`sir ko`rsatmoqda.

Bizning mamlakatimiz mustaqillik yillarida ekologik xavfsizlikni ta`minlash bo`yicha muhim tashkiliy ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy tadbirlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Ko`rilgan choralar atmosferani ifloslanish darajasini pasaytirish, asosiy suv oqimlari faoliyatini yaxshilash, milliy ekologik muammolarni hal etishda xalqaro tashkilotlarni jalb etishga imkon berdi. Ekologik muammolarni hal etishda jahon hamjamiyati bilan hamkorlik chuqurlashtirildi.

Asosiy masad O`zbekiston Respublikasi ekologik xavfsizligiga ichki va transchegaraviy xavflarni aniqlash, ularni murakkablik hamda dolzarbligi darajasi bo`yicha ajratish, samarali amal qilib kelinayotgan hamda mumkin bo`lgan xalqaro tashabbuslar, dasturlar va loyihalarni inventarizatsiya qilish va baholashni o`tkazish yo`li bilan "O`zbekiston jahon hamjamiyati" o`zaro aloqalari samarasini oshirish hisoblanadi<sup>1</sup>.

Ekologik xalqaro hamkorlik iqlim o`zgarishini oldini olish, Orol va orol bo`yi muammosini hal qilish, landshaftlarni cho`lga aylanishi, tabiiy va texnogen xususiyatdagi katalizmlar, hududlarning transchegara ifloslanishini oldini olish bo`yicha choralar ishlab chiqish, suv resurslaridan mintaqaviy foydalanish, infeksiya va boshqa o`ta xavfli kasalliklar tarqalishi masalalarini hal etish hisoblanadi. Yuqoridagilarni amalga oshirish uchun kerakli xalqaro tashkilotlarda ishtirok etish, xalqaro ( davlatlararo ) shartnomalar, bitimlar, konvensiyalar tuzishda faol ishtirok etish bilan ta`minlanadi. Investitsion oqimlarni maqsadli boshqarish, ularni ekologik xavfsizlik bo`yicha aniq muammolarni hal etishga yo`naltirish, respublikaga jaxon

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo`lida. 6-tom.- Toshkent: O`zbekiston, 1998.-B. 54.

hamjamiyati ajratadigan mablag`larni tarqalib ketishi va harakatlarini takrorlanishiga yo`l qo`ymaslik muhim ahamiyatga ega bo`ladi<sup>1</sup>.

Bugungi kunda mintaqa mamlakatlari tabiatni muhofaza qilish bo`yicha mustaqqil me`yorli siyosat ishlab chiqishlari va amalga oshirishlari, atrof-muhitni muhofaza qilish esa mintaqaviy va dunyo miqiyosida hamkorlik qilishlari mumkin.

Ekologik muammolarni hal etishda jahon hamjamiyati bilan hamkorlikni kuchaytirish.

1. Ekologik ta`lim, madaniyat tuzumini rivojlantirish va takomillashtirish
2. Tabiiy resurslar, xususan, suv, er, mineral – xom ashyo va biologik resurslardan oqilona va uyg`unlikda (Kompleks) foydalanish.
3. Respublikaning butun hududida tabiiy atrof – muhit ifloslanganlik darajasini Ekologik – gigienik va sanitar me`yorlar darajasiga kamaytirish
4. Markaziy Osiyo mintaqaviy Ekologik xavfsizlik tuzilishini shakllantirish.
5. Ekologik falokatlar, kulfatlar, favqulotdda vaziyatlar va avariyaalarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish.
6. Mamlakatimizning Ekologik tanglik hududi
  - Orolbo`yida, shuningdek boshqa Ekologik noqulay sharoitlar hududlarida Ekologik holatni sog`lomlashtirish bo`yicha kompleks choralar ko`rishini ta`minlash maqsadida xalqaro Ekologik hamkorlikni keng yo`lga qo`yish.
7. Ekologik xalqaro hamkorlik borasida monitoring, bashorat va axborotlashtirish tizimini kuchaytirish.
8. Respublika aholisini sifatli ichimlik suvi, oziq – ovqatlar, dori – darmonlar bilan ta`minlash.
9. Ekologik xalqaro hamkorlik sohasida ilmiy texnika yutuqlaridan foydalanish hamda ilmiy texnik imkoniyatlarni rivojlantirish.

---

<sup>1</sup> Kenjaev R. O`zbekiston Respublikasida yerlarni muhofaza qilishning huquqiy masalalari. Avtoreferat.- Toshkent: TDYUI, 2006. –B. 10.

### **BMI bo`yicha tavsiyalar.**

1. Xalqaro ekologik hamkorlik sohasida talaba - yoshlarni keng jalb etish.
2. Xalqaro ekologik hamkorlikda Ekologik toza va resurslarni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish.
3. Aholini sifatli ichimlik suvi, oziq, ovqatlar, dori – darmonlar bilan ta'minlash.
4. Turli darajadagi davlat organlari va tabiatdan foydalanuvchilar o`rtasidagi o`zaro munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy mexanizmini takomillashtirish.
5. Qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarining ijtimoiy - iqtisodiy samaradorligini baholash jarayoniga ekologik talablarni kiritish.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–Toshkent: O`zbekiston, 2008.
2. Karimov I. A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.- Toshkent: O`zbekiston, 1995.
3. Karimov I. A. Bizning bosh maqsadimiz- jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizastiya va isloh etishdir.-Toshkent: O`zbekiston, 2005.
4. Karimov I. A. O`zbekiston ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishining asosiy prinstiplari.-Toshkent: O`zbekiston, 1996.
5. Karimov I. A. O`zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura.-Toshkent: O`zbekiston, 1996.
6. Karimov I. A. Inson, uning huquqi va erkinliklari hamda manfaatlari-eng oliy qadriyat. O`zbekiston Respublikasi Konstitustiyasi 13 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimda so`zlangan nutq.
7. Karimov I. A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo`lida. 6-tom.- Toshkent: O`zbekiston, 1998.
8. Boboyev H., Islamov Z., Odilqoriyev H. va boshq. Davlat va huquq nazariyasi: Darslik. – Toshkent: TDYuI. 2005.
9. O`zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksiga sharhlar. Maxsus qism. / mas`ul muharrir Rustamboyev M. – Toshkent: Ilm-ziyo. 2006.
10. Xojiyev E. Ma`muriy huquq. Darslik. Toshkent: - FAAK. 2006.
11. Abdusalomov M, Azimov X, Ahmadjonov B va boshqalar. O`zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi, Toshkent: Adolat, 2007.
12. Rahmonqulov . T, Usmonov M. B, Xolmo`minov J. T va boshqalar. Qishloq xo`jalik huquqi: Darslik. – Toshkent: Toshpoligrafkombinat, AK 2000.
13. Ergashev A, Ergashev T. Agroekologiya: Darslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2006.

14. Usmonov M. Tabiatni muhofaza qilishning konstitustiyaviy asoslari: Risola.- Tashkent: TDYuI. 2002.
15. Mirzaev T. Ekologiya va prokurorlik nazorati. // Hayot va qonun. 1999. №8.
16. Xolmo`minov J. T. Qishloq xo`jaligi va Ekologiya sohasidagi qonunchilikni rivojlantirishning o`zaro bog`liqligi masalalari. Agrar qonunchilik muammolari mavzusidagi ilmiy amaliy konferenstiya materiallari to`plami.- Tashkent: TDYuI, 2003.
17. Fayziev Sh. Ekologiya nazorati tizimi: huquqiy ta`minlash masalalari. Mustaqqil O`zbekiston falsafa va huquq fanlarining dolzarb muammolari mavzusidagi uchinchi ilmiy-amaliy konferenstiya materiallari to`plami.- Tashkent: I. Mo`minov nomidagi falsafa va huquq instituti, 1996.
18. Kenjaev R. O`zbekiston Respublikasida erlarni muhofaza qilishning huquqiy masalalari. Avtoreferat.- Tashkent: TDYuI, 2006.
19. Aslonov M, Abduraimov F, Bekiev O. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning huquqiy kafolati. – Tashkent: 2009.
20. To`xtayev A. S, aydarova X. N, Mardiyeva K, Ismoilova D. Ijtimoiy ekologiya. – Tashkent: 2005.
21. Ashurmetov O. A, Raimova T. T. Ekologiya. – Tashkent: Chinor ENK, 2008.
22. Xolmo`minov J. Ekologiya va qonun. – Tashkent: Adolat, 2000.
23. O`zbekiston Respublikasining tabiatni muhofaza qilish to`g`risidagi qonuni.
24. O`zbekiston Respublikasining Ekologik ekspertiza to`g`risidagi qonuni. 25. 05. 2000.
25. O`zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo`mitasining O`zbekiston Respublikasida atrof muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan foydalanishning holati to`g`risidagi Milliy ma`ruzasi. – Tashkent: Xan DA. 2006.
26. Alixonov B, Samaylov S. Mintaqaviy ekologik muammolar va milliy ustuvorlik.//Huquq va burch. 2010. № 10.

27. Safarov J. Ekologik qonunchilik: tushuncha va tizim.// Tabiat va qonun. 2010. -№1.
28. Hakimov R. O`zbekiston ekologik harakati saylov jarayonlarining muhim sub`yekti sifatida.// Fuqarolik jamiyati. 2011. 14-yanvar.
29. Alixonov B. Ekologik qonunchilik istiqboli. //Huquq va burch. 2010. № 51.
30. [http: // www. Glossary. Ru.](http://www.Glossary.Ru)
31. [http: // www. Bankreferatov. Ru.](http://www.Bankreferatov.Ru)
32. [http: // www. Koob. Ru.](http://www.Koob.Ru)
33. [http: // www. Referat. Ru.](http://www.Referat.Ru)

## Mundarija

<b>1. Kirish.</b> .....	2-3
<b>2. I. Xalqaro ekologik hamkorlikning huquqiy asoslari</b>	
<b>3. I.1.</b> Xalqaro ekologik hamkorlik tushunchasi, mazmuni va tarixi.....	4-9
<b>4. I.2.</b> Xalqaro ekologik hamkorlikni huquqiy tartibga solish asoslari. Xalqaro va mintaqaviy xujjatlar tavsifi.....	10-20
<b>5. I. 3.</b> O`zbekiston Respublikasi Xalqaro ekologik hamkorlikning milliy-huquqiy asoslari.....	21-28
<b>6. II.O`zbekiston xalqaro ekologik hamkorligining asosiy Xususiyatlari</b>	
<b>7.II.2.</b> O`zbekiston xalqaro ekologik hamkorligining asosiy yo`nalishlari.....	29-35
<b>8.</b> Xalqaro ekologik hamkorlik istiqbollari.....	36-41
<b>9.</b> Xulosa.....	42-44
<b>10.</b> Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	45-47